

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
TILSHUNOSLIK KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida

UDK 4/40

Kimsanboyeva Basoat Nabiyevna

Kvantitativlik va uning o'zbek tilida ifodalanishi

5A 220102-Lingvistika mutaxassisligi
bo'yicha magistr akademik darajasini olish uchun

**MAGISTRLIK
DISSERTATSIYASI**

Ilmiy rahbar:
f.f.d., professor.

SH.M.Iskandarova,

Farg'ona – 2017

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

Fakultet: filologiya
Basoat

Magistratura talabasi: Kimsanboyeva

Kafedra: o'zbek tilshunosligi

Ilmiy rahbar: Iskandarova Sharifa

O'quv yili: 2016-2017

Mutaxassisligi: lingvistika (o'zbek tili)

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

Mavzuning asoslanishi va dolzarbligi. Tilda mavjud bo'lgan miqdor ifodalovchi birliklar kategoriya sifatida o'rganilgan, shu bilan birga masalaga maydon sifatida ham yondoshilgan. Kvantitativ birliklarning sathlararo munosabatini, umumiy va xususiy tomonlarini aniqlash va ko'rsatib berish bilan bir qatorda masalaga lingvokulturologik nuqtai nazardan yondoshish dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqot obyektni miqdor ma'nosini ifodalash uchun xizmat qiluvchi lisoniy vositalar belgilaydi. Tadqiqot predmeti sifatida A.Qodiriy, Y.Sulaymon, E.Vohidov, Iqbol Mirzo ijodidan foydalanildi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Ishning **maqsadi** turli sathlarda miqdor ifodalovchi birliklar va ularning lingvokulturologik xususiyatlarini ko'rsatib berish.

Vazifalar:

- kvantitativlikning jahon va o'zbek tilshunosligida o'rganilashini yoritish;
- tilning turli sathlarida kvantitativlikning namoyon bo'lishini tadqiq etish;
- kvantitativlikning lingvokulturologik xususiyatlarini ochib berish

Ishning ilmiy yangiligi.

- kvantitativ birliklarning har bir sathdagi o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib berish;

- lingvokulturologik aspektda leksik-semantik, sintaktik, morfologik xususiyatlari yoritish;

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Tilning deyarli barcha sathlarida kvantifikatorlar qo'llanadi. Har bir sathda o'ziga xos vazifa bajarib keladi. Ayniqsa xalq og'zaki ijodida faol qo'llanilib, lingvokulturologik xususiyatlarini namoyon etadi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi. Tanlangan mavzu bo'yicha A.G'ulomov, Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, I.Rasulov, Y.Zulfiyev, H.Ne'matov, Sh.Shahobiddinova, G'.Zikrillayev, F.Safarov, M.Mamajonova kabi tilshunoslarning ilmiy ishlari yaratilgan.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Mavzuni tadqiq etishda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining fan va ma'naviyat masalalariga bag'ishlangan asarlariga, mavzuga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarga va lingvistik tavsiflash, qiyosiy va tasviriy metodlarga tayanildi.

Dissertatsiyaning nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot tilni sistema sifatida o'rganish muammolarini hal etishda hissa qo'shadi, ish materiallaridan qo'llanmalar yaratishda, maxsus kurslar o'qitishda foydalanish mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi. Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ilmiy rahbar:

Sh.M.Iskandarova,
filologiya fanlari doktori, professor.

Magistratura talabasi:

B.N.Kimsanboyeva

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALIZED
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
FERGHANA STATE UNIVERSITY**

Faculty: Philology

Post-graduate student: B.Kimsanboyeva

Department: Uzbek language

Scientific supervisor: Sh.Iskandarova

Academic year: 2016-2017

Specialty: linguistics (uzbek language)

ANNATATION OF THE DISSERTATION

Actuality of the theme. The units representing the amount in the language studied as category, at the same time, the study of the matter approached as area. In connection with layers of kvantitative units, specifying and presenting general and special sides as well as in terms of issue pointing linguoculturologically, determine the relevance of the theme of dissertation.

The object and subject of research. The meaning of the amount referred to linguistic devices determines the object of research. Creation of A.Qodiriy, Y.Sulaymon, E.Vohidov, Iqbol Mirzo was used as the subject of research.

The aim of the research. The aim of research is to indicate amount expressing units on different layers and their linguoculturological peculiarities.

Functions:

- to describe studying of kvantitative in world and uzbek linguistics;
- to investigate the appearance of kvantitative on different layers of language;
- to present linguoculturological peculiarities of kvantitative;

The scientific novelty of research.

- to illustrate peculiarities of kvantitative units on each layer;
- to describe peculiarities of lexic-semantic, sintactic, morphological on linguoculturologic aspect;

Main issues and assumptions of research. Kvantificators are used nearly all layers of language. It has specific function on each layer. Particularly, it is

utilized on folk-lore actively, and it also demonstrate peculiarities of linguoculturology.

Commentary of literature according to research work. Concerning to the theme, A.G'ulomov, Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, I.Rasulov, Y.Zulfiyev, H.Ne'matov, Sh.Shahobiddinova, G'.Zikrillayev, F.Safarov, M.Mamajonova did scientific works.

Description of method used on research work. The research is based on the works of the first president of the Republic of Uzbekistan which is devoted to science and moral matters. While the implementation of the survey, the research rely on comparative and descriptive methods, scientific research and the linguistic description which are devoted to the theme.

The scientific and practical importance of the research. The research contributes to solve the study of problems as language system , it can be used to create manuals and to teach special courses.

The structure of the dissertation. The research work consists of the required structure – and introduction, 3 chapters, a conclusion and the list of used literature.

Supervisor: Sh.M.Iskandarova

Magister: B.N.Kimsanboyeva

MUNDARIJA

KIRISH.....	7
I bob. Kvantitativlikning tilshunoslikda o'rganilishi	12
1.1 Jahon tilshunosligida o'rganilishi.....	12
1.2 O'zbek tilshunosligida o'rganilishi.....	23
I BOB BO'YICHA QISQA XULOSA:	38
II BOB. TIL SATHLARIDA KVANTITATIVLIKNING NAMOYON BO'LISHI.....	39
2.1 Morfemik sathda namoyon bo'lishi	39
2.2 Leksik sathda namoyon bo'lishi	44
2.3 Grammatik sathda kvantitativlik:.....	49
a) morfologik sathda kvantitativlik.....	49
b) sintaktik sathda kvantitativlik	58
II BOB BO'YICHA QISQA XULOSA:.....	62
III BOB. KVANTITATIVLIKNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI.....	63
3.1 Kvantitativlikning topishmoqlarda izohlanishi	63
3.2 Kvantitativlikning maqollarda ifodalanishi	71
III BOB BO'YICHA QISQA XULOSA:	74
UMUMIY XULOSALAR.....	76
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	77

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Birinchi Prezidentimiz o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida "Istiqlol yillarida o'zbek tilining qo'llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy, ommabop asarlar o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi lug'atlar ko'plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shmoqda"¹ - deya ta'kidlagan edi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq o'zbek tilshunosligi sohasida milliy g'oya va milliy qadriyatlarni tiklashga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov: "Xalqning milliy madaniyati va o'ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo'lmish o'zbek tilini rivojlantirish, bu tilning davlat maqomini izchil va to'liq ro'yobga chiqarish"² davlat ahamiyatiga molik ish ekanligini ta'kidlagan edi. "Endilikda ilm-fan yangi yo'llar ochishi, sifat jihatidan yangi texnologiyalarni jadallik bilan yaratishi, jamiyatning yangi holatga o'tishini ta'minlashi lozim"³ Bu fikrlar o'zbek tilshunosligi uchun ham tegishlidir. Keyingi yillarda vujudga kelgan va kelayotgan ilmiy izlanishlarda u yoki bu til sathi birliklariga semantik jihatdan yondashishga e'tiborning kuchayishi buni yaqqol ta'kidlaydi.

Kvantitativlik va uning o'ziga xos xususiyatlari o'zbek tilshunosligidagi otning son kategoriyasi va fe'lning shaxs-son kategoriyasining o'rganish masalalari bilan bog'lanadi. Bu jarayonda ot va fe'lning son kategoriyasi mohiyatan bir hodisa ekanligi, mazmuni, vazifasi va qo'llanishiga ko'ra uzviy bog'liq ekanligi yoritib berildi. Bulardan tashqari o'zbek tilida son-miqdor ma'nosini ifodalovchi lug'aviy, sintaktik, so'z yasovchi, nolisoniy vositalar mavjud ekanligi, yuqoridagi ikki kategoriya bilan birlashib yagona umumiy mazmuniy vazifa bajaruvchi tizim hosil qilishi, bu sistemaning birliklari tilning

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.

² Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т.: Ўзбекистон, 1998.

³ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - Т.: O'zbekiston, 2011.

turli sathiga mansubligidan unga nisbatan grammatik kategoriya atamasini qo'llab bo'lmasligi⁴ haqida ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi.

Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar doirasi nechog'lik keng bo'lishiga qaramay, ular tilshunoslikning asosiy o'rganish obyekti bo'lgan til birliklarining umumiy va xususiy jihatlarini to'liq yoritib bergan deb bo'lmaydi. Xususan, kvantitativlik va uning o'ziga xos xususiyatlari, bunday birliklarning boshqa til birliklari bilan munosabatga kirishuvida yuzaga keladigan munosabatlar, miqdor ifodalovchi birliklarning sathlararo umumiy va xususiy tomonlarini o'rganish ham nazariy, ham amaliy jihatdan zarur ekanligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot obyekti va predmeti Tadqiqot obyekti miqdor ma'nosini ifodalash uchun xizmat qiluvchi lisoniy vositalar belgilaydi. Tadqiqot predmeti sifatida A.Qodiriy, Y.Sulaymon, E.Vohidov, Iqbol Mirzo ijodidan foydalanildi.

Ishning maqsadi va vazifalari. Turli sathlarda miqdor ifodalovchi birliklarning qo'llanilishi, har bir sathda yuzaga keluvchi o'ziga xos jihatlarini va kvantitativ birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini ko'rsatib berish ishning asosiy maqsadi bo'lib, bunda miqdor ifodalovchi birliklarning morfemik, leksik, morfologik, sintaktik sathda tadqiq etish, bunday birliklarning sathlararo munosabati o'rganildi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi **vazifalar** hal etildi:

- kvantitativlikning jahon tilshunosligida o'rganilishini yoritish;
- kvantitativlikning o'zbek tilshunosligida o'rganilishini yoritish;
- morfemik sathda mavjud bo'lgan kvantitativ birliklarni tahlil etish;
- kvantitativ birliklarning leksik-semantik xususiyatlarini yoritish;
- kvantitativ birliklarga morfologik jihatdan yondashish;
- sintaktik qurilishda yuzaga keluvchi kvantitativ ma'nolarni tahlil etish;
- kvantitativ birliklar o'rtasidagi antonimiya, sinonimiya hodisalarini o'rganish;
- kvantitativ birliklarning tarixiy variantlarini qo'llanishini tahlil qilish;

⁴ Сафаров Ф. Ўзбек тилида сон-миқдор микромайдони ва унинг лисоний-нутқий хусусиятлари. Филол. фан. ном. дисс. Самарқанд – 2004.

- kvantitativ birliklarning xalq og'zaki ijodida, xususan, topishmoq va maqollarda qo'llanishini o'rganish;

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Mazkur dissertatsiyada:

- kvantitativ birliklarning har bir sathdagi o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib berish;
- lingvokulturologik aspektda leksik-semantik, sintaktik, morfologik xususiyatlari yoritish;

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Kvantitativ belgi til sathlari o'rtasida eng keng tarqalgan tasniflovchi belgilardan hisoblanadi. Kvantitativ belgini muayyan sath birliklarini ajratishda yoxud o'zaro qiyoslanuvchi sathlarning birliklari orasidagi o'xshashlik va farqlarni belgilashda muhim kriteriya sifatida qo'llash mumkin. Shunga ko'ra mazkur tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari quyidagilardan iborat:

1. Tilning deyarli barcha sathlarida kvantifikatorlar qo'llanadi. Har bir sathda o'ziga xos vazifa bajarib keladi. Ular o'rtasida sinonimlik, antonimlik hodisalarini kuzatish mumkin.
2. Sinonimik qatorning bir zarb ostida ketma-ket qo'llanilishi ma'noni kuchaytiradi, ta'kidlaydi va so'zlovchining konnotativ maqsadini yuzaga chiqaradi.
3. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodida, xususan, topishmoq va maqollarda faol qo'llanilib, lingvokulturologik xususiyatlarini namoyon etadi.

Tadqiqotning mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi. Keyingi yillarda F.Safarovning "O'zbek tilida son-miqdor mikromaydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyati" mavzusidagi nomzodlik ishi (2004), M.Mamajonovanning "Kvantitativlik (miqdor kateoriyasi) va uning fe'llarda ifodalanishi" (2009), "Kvantitativlikning til birliklarini tahlil qilishdagi ahamiyati" (2016) kabi ilmiy izlanishlari e'lon qilingan.

Bungacha bo'lgan davrda M.Koshg'ariy, Z.M.Bobur, A.Fitrat kabi olimlar o'zlarining tilshunoslikka oid qarashlarida miqdor ifodalovchi birliklar haqidagi dastlabki ma'lumotlarni berganlar.

O'zbek tilshunosligida tilning ma'lum sathiga xos alohida birlik yoki hodisani, uning sistema tarkibida ekanini idrok etgani holda maxsus ilmiy tadqiq qilishni A.G'ulomov boshlab berdi. Olimning alohida olingan affikslarga oid ishlari, shuningdek, "O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi" (1944), "Ozbek tilida so'z yasaliş yo'llari" (1949) kabi tadqiqotlari fikrimizni tasdiqlaydi. Ushbu asarlar tahlil usullari, ilmiy izlanishlar yo'nalishlarini yuqori darajaga olib chiqdi: sistem-struktur, formal, formal-funksional, substansional yo'nalishlar yoki tahlil usullari va hokazolarni birlashtirgan, sintezlashtirgan holda tadqiqot olib borishgina sof ilmiy natijalar berishini asoslab berdi. Mazmun yoki shaklga e'tiborni kuchaytirib, bir tomonlama yondashib tadqiqot olib borish mukammal xulosalarga olib kelmasligini isbotladi

Xususan, A.G'ulomovning "O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi"⁵ nomli monografiyasini o'zbek tilshunosligidagi alohida bir hodisani – grammatik kategoriyani chuqur ilmiy tadqiq etishning ilk namunasi deyish mumkin. Olim "O'zbek tilida ko'plik" iborasi juda keng ma'noni o'z ichiga olishini ta'kidlar ekan, "unda qo'shimchalar orqali ifodalangan ko'plik, ayrim so'z va so'z birikmalari orqali ifodalangan ko'plik anglashiladi"⁶ degan umumiy holatni qo'shimcha qiladi. Bu olimdan keyin ushbu hodisalarni o'rgangan Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, I.Rasulov kabi tilshunoslar A.G'ulomov qarashlariga tayanib tasviriy metod asosida son kategoriyasi shakllarining nutqiy ma'nolarini ko'rsatib chiqdilar. Y.Zulfiyevning "Jamlik kategoriyasining o'ziga xos xususiyatlari"⁷ nomli maqolasida H.Ne'matov, Sh.Shahobiddinova sistem yondashuvga asoslanib son kategoriyasi shakllarining xususiy (nutqiy) grammatik ma'nolari o'rtasidagi munosabatni tiklash asosida umumiy (lisoniy) grammatik ma'nolarini ochib berdi.

G'.Zikrillayev uzvli va matniy tahlildan foydalanib, otning son kategoriyasi shakllariga tejamkorlik xosligini aniqladi. Shuningdek, mazkur olim fe'lda son ma'nosi shaxsdan alohida kategoriya hosil qilishini ko'rsatdi.

⁵ Гуломов А. Ўзбек тилида кўплик категорияси. Тошкент, Ўздавнашр. 1944.

⁶ Ўша асар.

⁷ Зулфиев Я. Жамлик категориясининг ўзига хос хусусиятлари// Ўзбек тили ва адабиёти, 1975, 4-сон

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlari tadqiqot uchun metodologik asos sifatida xizmat qildi. Ishda lingvistik tavsiflash, qiyosiy va tasviriy metodlardan foydalanildi.

Olimlardan A.G'ulomov, Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, I.Rasulov, Y.Zulfiyev, H.Abdurahmonov, E.Fayzullayeva, H.Ne'matov, Sh.Shahobiddinova, G'.Zikrillayev, F.Safarov, M.Mamajonova va boshqa shu yo'nalishda tadqiqot olib borgan tilshunoslarning tadqiqot metodlariga asoslanildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot tilni sistema sifatida o'rganish muammolarini hal etishda hissa qo'shadi, ish materiallaridan qo'llanmalar yaratishda, maxsus kurslar o'qitishda foydalanish mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I bob. Kvantitativlikning tilshunoslikda o'rganilishi

1.1 Jahon tilshunosligida o'rganilishi

Kvantitativlik va ushbu tizim turli rivojlangan tillarda, shuningdek o'zbek tilida ham o'ziga xos xususiyatlari va serqirraligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Miqdor ifodalovchi birliklarni til sathlarining deyarli barchasida kuzatishimiz mumkin. Jahon va o'zbek tilshunoslarining kvantitativlik kategoriyasi va uning o'ziga xos jihatlari haqida bildirgan fikrlari va ushbu tizimni tasniflash yuzasidan bildirgan munosabatlari xilma-xil. Kvantitativ metodlar, ayniqsa, statistika tilshunoslikda alohida ahamiyat kasb etadi. Kvantitativ tahlil aniq va to'laqonli tahlil va tadqiq qilish uchun imkoniyat yaratadi. Shu bilan bir qatorda til birliklarini tartibli joylashtirish, aniq tartiblashga erishishga yordam beradi.

Olib borilgan tadqiqotlar o'rganilganda shuni kuzatish mumkinki, kvantitativlik tasnif qilish xususiyatiga ega bo'lgan inson tafakkurining murakkab mahsuli, shu bilan bir qatorda turli xil shakllarda namoyon bo'luvchi tilning har qanday sathida faol amal qiluvchi keng qamrovli kategoriyadir.

Rus va yevropa tilshunoslari tomonidan bu tizim turli yo'nalish va aspektlarga ko'ra tahlil qilingan. Ayniqsa, rus tilshunoslari tomonidan miqdor ifodalovchi birliklar masalasi keng va atroflicha yoritilgan, bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. G.A.Menovshikovning "Turli tillarda birlik-ko'plik darajasini ifodalash usullari"⁸, S.I.Krasovaning "Rus tilidagi miqdor ifodalovchi frazeologik birliklar"⁹, A.I.Lashkevichning "Zamonaviy rus tilidagi metoforik miqdor bildiruvchi genetik qurilmalar"¹⁰, N.V.Manuylovning "Ilmiy ko'nikma tuzilishidagi noaniqlik kategoriyasi"¹¹ singari tadqiqotlari, V.V.Akulenko, L.G.Akulenko, N.L.Klimenkolar tomonidan tuzilgan "Zamonaviy rus tilida noaniq

⁸ Меновшиков.Г.А.Вопросы языкознания. - 1970.№1-ст.82-88

⁹Красова.С.И. Фразеологические единицы со значением количества в русском языке. Дисс.канд.филол.наук. - Ростов.1981

¹⁰ Лашкевич А.И. Генетические конструкции со значением метафорического количество в современном русском языке. Дисс.канд.филол.наук. - Минск,1976.

¹¹ Манюлов.Н.В.Категория неопределенности в структуре научного познание. Дисс.канд.филол.наук. - Л., 1985

ko'plikni ifodalovchi leksik-frazeologik birliklar"¹², "Zamonaviy ingliz tilida noaniq ko'plikni ifodalovchi leksik-frazeologik birliklar"¹³, "Zamonaviy nemis tilida noaniq ko'plikni ifodalovchi leksik-frazeologik birliklar"¹⁴, "Zamonaviy ispan tilida noaniq ko'plikni ifodalovchi leksik-frazeologik birliklar"¹⁵, "Zamonaviy rus tilida miqdorning kamligini ifodalovchi leksik-frazeologik birliklar"¹⁶ kabi tezaruslar, Igoshina Tatyana Vladimirovnaning "Turli sistemali tillarda kvantitativlik kategoriyasining morfotem tahlili"¹⁷ nomli nomzodlik dissertatsiyasi va boshqa o'nlab ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, miqdor ifodalovchi birliklar ilmiy izlanishlar, yangi tadqiqotlar uchun manba bo'lib xizmat qilgan va bugungi zamonaviy tilshunoslik uchun ham o'rganilmagan jihatlari bilan manba bo'la oladi. Shu bilan birga fanlararo integratsiya asosida ko'plab yangicha tasniflar uchun asos bo'la oladi.

Biz ushbu ilmiy izlanishimizda nisbatan yangi bo'lganini hisobga olib, T.V.Igoshinaning "Turli sistemali tillarda kvantitativlik kategoriyasining morfotem tahlili" nomli nomzodlik dissertatsiyasini o'rganib chiqishga harakat qildik. Tilshunos kvantitativlik kategoriyasini o'rganishni metodologik o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritadi. Uning fikricha, voqelikning inson tomonidan o'zlashtirilish jarayoni natijasini uning ongida shakllangan bilimlar majmuasi deb hisoblash mumkin. Tadqiqotchining bu boradagi fikrlarini umumlashtirib, ongda shakllangan bilimlar natijasida til sistemasi asoslari yaratiladi va uning parametrlari doimiy mukammallashib boradi, degan xulosaga kelinadi.

¹² Акуленко В.В., Акуленко Л.Г., Клименко Н.Л. Лексико-фразеологические средства выражение неопределенно большого количества в современном русском языке. // Вопросы языкознания. 1998 №3

¹³ Акуленко В.В., Акуленко Л.Г., Клименко Н.Л. Лексико-фразеологические средства выражение неопределенно большого количества в современном английском языке. // Вопросы языкознания. 1998 №4

¹⁴ Акуленко В.В., Акуленко Л.Г., Клименко Н.Л. Лексико-фразеологические средства выражение неопределенно большого количества в современном немецком языке. // Вопросы языкознания. 1999 №3

¹⁵ Акуленко В.В., Акуленко Л.Г., Клименко Н.Л. Лексико-фразеологические средства выражение неопределенно большого количества в современном испанском языке. // Вопросы языкознания. 1999 №4

¹⁶ Акуленко В.В., Акуленко Л.Г., Клименко Н.Л. Лексико-фразеологические средства выражение неопределенно малого количества в современном русском языке. // Вопросы языкознания. 1999 №6

¹⁷ Игошина Т.В. Морфотемный анализ категории количественности в разнотемных языках. Дисс. канд. филол. наук. - У., 2004.

Miqdor turli kategoriyalarni hisoblash va birliklarni o'lchash imkoniyatini nazarda tutadi. Miqdor ifodalovchi birliklar birikishda va bir birlik sintagmemasi tarkibida kategoriyalar va belgilarning o'zaro ta'siri amalga oshiriladigan xususiyat, turli xil darajada mohiyat tushunchalarining majmuasi haqidagi mantiqiy-semantik kategoriyalar demakdir. Ko'p hollarda miqdor ifodalovchi birliklar boshqa semantik- mantiqiy kategoriyalarga tobe va ularni tavsiflab keladi. Nutqda til birliklarining birikishida atributiv element bo'lib xizmat qiladi.

Rus va ingliz tillarida semantik emas , funksional o'lchov hisoblanadigan so'zlar qatlami mavjud. Bunday so'zlar kvantitativ bo'lmagan kategorial belgiga ega. Bunday qatlamga substansional leksemalar taalluqli: kitob sahifalari, roman boblari kabi.

I.G.Koshevaya o'zining "Tilshunoslik muammolari va ingliz tili nazariyasi"¹⁸ kitobida quyidagicha yozadi: "...fe'llarda birlik va ko'plik sonining farqi jarayonning tub mohiyatiga tegishlidir. Ular orasidagi tafovutni birlik sonidagi aniqlik va ko'plik sonidagi mavhumlik bilan belgilash mumkin". Garchi fe'llardagi son grammatik kategoriyasi vositachilik xarakteriga ega bo'lsa ham, harakat bajaruvchilarining sonidan tashqari fe'lning o'zi ham miqdor ma'nosining yuzaga chiqishini ta'minlovchi leksik va grammatik xususiyatlarga ega. Bu qarashlari bilan olim fe'llardagi birlik va ko'plik son shu harakatni ayni vaqtdagi bajaruvchisining soniga bog'liq ekanini e'tirof etadi. Lekin uning fe'lning o'zida ham miqdor ma'nosini yuzaga chiqaruvchi vositalar mavjud ekanligi haqidagi qarashlari biroz muammoli. Jumladan, harakatning makon-zamon sig'imidagi cheklanganlik va cheklamaganlik asosidagi zidlanishida miqdor ma'nosi sezilib turadi: olib kelmoq – keltirmoq , qochmoq – yugurmoq, kelmoq – ketmoq. Harakatda subyekt ishtirokining kvantitativ ifodalanishi, ayniqsa, fe'llarda nisbat kategoriyasida yaqqol namoyon bo'ladi,- deydi olim. Lekin, bizningcha, olim sanab o'tgan leksik va grammatik vositalar ham miqdor ma'nosini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

¹⁸ Кошечая И.Г. Проблемы языкознания и теории английского языка. М: Просвещение, 1976

Til va falsafa aloqadorligini izchil tadqiq etgan olim V.Z.Panfilov esa mazmuniy miqdor kategoriyasi obyektiv olamning miqdoriy aniqligi in'ikosi natijasi ekanligini e'tirof etadi.¹⁹

Faylasuflar obyektiv borliqni o'rganayotib, miqdor kategoriyasining geterogenligi (har-xilligi) haqida aytadilar. Bu xilma-xillik miqdor, son, o'lchov, katta-kichiklik kabi turli belgilarni qamrab oladi. Shu bilan birga miqdor kategoriyasining boshqa kategoriyalar bilan mustahkam aloqasini kuzatish mumkin. Har bir kategoriya bilan aloqa tilshunoslikda substansionallik, kvalitatiflik, temporallik, aksionallik nomlari bilan ataladigan kategoriyalari o'ziga xos xarakterga ega.

Tadqiqotchi V.Igoshina kvantitativlik kategoriyasini boshqa kategoriyalar bilan munosabatini, ya'ni kategoriyalararo munosabatini o'rganish uchun morfotemniy tahlildan foydalanadi.²⁰ Kvantitativlik bu ikki xil jarayon, bir tomondan kvantitativlik mustaqil kategoriya sifatida izohlanadi. Ikkinchi tomondan miqdor ifodalovchi birliklar mantiqiy semantik belgilar munosabatiga ko'ra kolistativniy hisoblanadi.

Miqdor va uning birliklari bilan aniqlanadigan ko'plik tushunchasi quyidagi tarzda namoyon bo'ladi:

1. Umumiy ko'plik. Bunda aniq miqdor anglashiladi: hamma , olomon , yolg'iz
2. Nolovoy ko'plik. Bunda esa leksik-grammatik, so'z hosil qiluvchi vositalar bilan aniqlanadi: sensiz, beodob. Bu o'rinda so'z yasovchi qo'shimcha yangi ma'noli so'z hosil qilish bilan bir qatorda, so'z tarkibiga qo'shimcha miqdor ma'nosini ham yuklayapti.

Ingliz tilida jamlik kategoriyasini maxsus tekshirgan Z.I.Kotova jamlik to'dani, yaxlitlikni ifodalashi bilan birga, to'da sostaviga kiruvchi miqdor, noaniq, qolaversa, bir turdagi narsalar bo'lishi, so'z esa birlik son formasida turishi lozimligini,²¹ aytadi. Bu qarashi bilan P.Vinogradovanning "Jamlik birlik va ko'plik

¹⁹ Панфилов В.З. Философские проблемы языкознания. М: Наука, 1977.

²⁰ Игошина.Т.В Морфотемный анализ категории количественности в разносистемных языках. Дисс.канд.филол.наук.-У.,2004.

²¹ Зулфиев Я. Жамлик категориясининг ўзига хос хусусиятлари// Ўзбек тили ва адабиёти,1975, 4-сон

son formasida predmetlarning majmuini bir butun, yaxlit tarzda ifodalaydi”²² degan fikriga e’tiroz bildiradi. Demak, jamlik mantiqan bir tomondan birlik bo’lsa, boshqa tomondan ko’plikdir. Jamlik otlariga bog’langan so’zlarning dam birlik, dam ko’plik sonda kelishi ham jamlikning ikki tomonga bog’liqligidan dalolat beradi. A.A.Potebnya ”Jamlik birlik deb o’qilgan yaxlit ko’plikdir”, deb ta’kidlaganda jamlikning ko’plik bilan birlikka bo’lgan xuddi ana shu xususiyatini nazarda tutgan edi, - deydi o’zbek tilshunos olimi Y.Zulfiyev.²³

Shuningdek, so’z birikmalari tarkibidagi miqdor ifodalovchi birliklar boshqa birliklar bilan ham bog’lanishga ta’sir qiladi. Shuhga ko’ra, T.Igoshina anqlik, noaniqlik va o’lcham tushunchalari bilan bog’liq bo’lgan kvantitativ birliklarni aniq miqdor (AM), taxminiy miqdor (TM) hamda noaniq miqdor (NM) kabi turlarini ko’rsatadi. Noaniq miqdorni yana ikki turini: noaniq katta miqdor (Nkat.M) va noaniq kichik miqdor (Nkich.M)ni ajratadi.

Tadqiqotchi T.Igoshina turli tizimli tillarda polireferentniy imkoniyatlar turlicha namoyon bo’lishini izohlashga harakat qiladi.²⁴ Ingliz tilida rus tiliga qaraganda polireferentli o’lchov otlarining miqdori ko’proq ekanini qayd qiladi. Har ikkala tilda ham o’lchov otlarining imkoniyati kengayishi sezilarli darajada deyish mumkin. Rus tilida bunday so’zlar qatori uzluksiz to’ldiriladi: kitobxonlar jamoasi. Ingliz tilida esa ko’plik denotatlarining miqdori o’sishi hisobiga to’ldiriladi. Ko’rsatilgan klassifikatsiyaning asosida o’lchov otlarining ikki sinfga bo’linishi yotadi:

- 1) o’lchov parametrlarining ustunligi;
- 2) ko’plik parametrining umumiylik sifatida ustunligi;

Shu bilan birga o’lchov otlarining turli xil parametrlarini ajratib ko’rsatadi:

- 1) aniq miqdorning moddiy o’lchovi. Masalan, lomat – bir tilim, bir burda; dolka – kichkina ulush; kusok – bo’lak, parcha.
- 2) moddiy o’lchovlarning noaniq ko’pligi. Masalan, lomti – burdalar, dolki – ulushlar, kuski – bo’laklar kabi.

²² Ўша асар 2 б

²³ Зулфиев Я. Жамлик категориясининг ўзига хос хусусиятлари// Ўзбек тили ва адабиёти, 1975, 4-сон

²⁴ Игошина Т.В. Морфотемный анализ категории квантитативности в разносистемных языках. Дисс.канд.филол.наук.-У.,2004

Shuningdek, tilshunos narsa-buyumlarning birlik yoki ko'plik o'lchovini ishlatilish doirasiga ko'ra ham farqlaydi:

- "tor" cheklangan doirada ishlatilashi: lomtik – burdacha, shmatok – bir parcha
- "kengroq" doirada qo'llaniladigan birliklar: kusok – bir bo'lak, kusocek – bo'lakcha
- staya (gala, to'da hayvonlarga nis.n), roy (gala arilarga nis.n), gruda(uyum), kucha (g'aram) kabi kvantitativ birliklarni jamlovchilikka o'xshash noaniq ko'plik, xuddi shu so'zlarni ko'plik shaklini olgan holatini esa noaniq ko'plikning noaniq ko'pligi deb ataydi.
- aniq shaklga ega bo'lmagan bir yoki turli xil predmetlarning majmuasini bir joyda cheklanib qolgan tartibsiz ko'plikka kirgizadi: kucha (g'aram), vorox (to'p) kabi
- tirik jonzorlar majmuasini esa lokal uyushgan bir turdagi ko'plik : tabun (uyur, poda), staya (gala, to'da)
- miqdoriy chegaraga ega bo'lgan ko'plik: polk, sinf, komanda
- assotsiativ semantik belgining yuqori darajasiga ega ko'plik: tabor (kishilar to'dasi), tolpa (olomon) kabi
- shaxslar yoki muassasalarning uyushgan birlashmasi: uyushma, guruh, jamiyat, davra, doira kabi.

A.A.Xolodovich ko'plikning ikki tipini qiyoslab: "Konkret, yalpi chatishgan, uzluksiz ko'plik toqlarga ajralgan, chog'ishmagan aniq ko'plikka qarama-qarshi qo'yiladi. Birinchi turdagi ko'plikni yaxlitligi tufayli mutlaqo qismlarga ajratib bo'lmaydi. Mabodo ular qismlarga ajratilsa, darhol ko'plikning ikkinchi turi toqlarga ajralgan ko'plikka aylanadi. Shuning uchun ham birinchi tipdagi ko'plikni birlik obrazidagi ko'plik deb atash mumkin"²⁵, - deb yozadi. Olimning ushbu qarashlari bilan T. Igoshinaning yuqoridagi narsa-buyumlarning

²⁵ Холодович А.А. Категория множества в японском языке в свете общей категория множества в языке. Ученые записки ЛГУ, серия филологических наук № 10, 1946, стр. 1

birlik yoki ko'plik o'lchovining ishlatilish doirasiga ko'ra ham farqlari haqidagi qarashlari o'rtasida uyg'unlik bor.

Rus tilshunosligida kvantitativlik va lokallikning ikki kesishish doirasi ajratiladi:

1. Kenglikda ma'lum tarzda joylashgan uyushgan ko'plik
2. Kenglikda cheklangan ko'plik

Birinchi doiraga o'lcham haqidagi tushunchalar, ko'plik a'zolarining yaqin joylashuvini belgilaydigan til birliklari kiritiladi: marosim, navbat

Ikkinchi doiraga esa ko'plikning asosiy turi nutqda o'zining obyektivlashtirilgan xususiyatini saqlaydigan til birliklari: bog', gulzor

Reprezentativ semantik o'zgarish hisobiga yuzaga keladigan umumiy ko'plik ham ajratiladi²⁶: shahar uxlayapti, kupe nonushta qildi kabi.

Kvantitativlik va temporallikning esa lokallikdan farqli o'laroq ikki tomonlama o'zaro bog'lanishi qayd qilinadi. Bir tomondan o'lchov birligi tarkibi o'lchov vositalari bilan bog'liq, ikkinchi tomondan esa determinativ-semantik darajada aksionallik bilan aniqlanadigan davriylik va chastotalikning sintezlashgan ma'nosi vujudga kelishi bilan bog'liq. Ba'zan, tunlari kabi.

Birlikning ko'plik sondagi otlashgan shaklida lokallik va temporallik bilan birlik va ko'plikning kvantitativ parametrlariga ega. Bunday o'zaro bog'lanish natijalarining katta qismini kvantitativ-relyatsional hamkorlik ifodalaydi. Bunda iterativlikning aksional belgilari aksionallikning aspektual jihatlarini ifodalagani uchun mahsuldor hisoblanadi. Harakat fe'li usullari kabi destruktiv va kvantitativ diskretlik xususiyatiga ega bo'lgan obyektga qaratilgan bo'ladi. Harakat takroriyliги va ko'plik obyektining birlashishi morfologik vositalar yordamida amalga oshiriladi. Masalan, *наврать* – (bir miqdor) *узмок*, *пачистить* – (bir miqdor) *archmoq*. Otlashgan shaklda aksionallik morfologik son belgisiga va kontekstual to'ldirishning xilma-xillikda ifodalangan birlik va ko'plik belgisiga ega bo'ladi. Transmotiv va lokativ morfotemlar tarkibida kvantitativlik harakatning

²⁶Лашкевич И.А. Генетические конструкции со значением метафорического количества в современном русском языке. Дисс. канд. филол. наук. - Минск, 1976

ko'p yoki umumiy subyekt yoki obykti bildiradi. Qo'shni uning uyiga qizchani boqish va parvarish qilish uchun ko'chib o'tdi.

Shunday qilib, harakat davriyligi va takroriyliigi va boshqa parametrlardan tashqari kategoriyalarda patentsial imkoniyatni umumiy ko'plikda safarbar qiladigan yoki ulardagi ko'plik belgisini aktuallashtiradigan yo'nalish kuzatiladi. Shuning uchun ko'proq o'zaro bog'lanishli chastota kategoriyalarning morfotem strukturalari ikki kategoriyaning mavjudligi kategoriyal-semantik darajada sodir bo'lishini ko'rsatadi.

Nutq jarayonida til birligi sintagmatik yoki sinsintagmatik darajalarda boshqa til birliklari bilan preditsirovanik munosabatiga kirishadi. Bu jarayonda til birligi hozirgi zamonaviy tilshinoslikdagi eng muhim fikriy tushunchalar bilan obyektivlashtirilgan sintagmamaning o'zaro bog'lanish jarayoniga uchraydi. Natijada obyektivlashtirilgan sintagmema bir xil qiyofani saqlaydi yoki kontekstional komponentlarning qisman yoki to'liq bir-biriga to'g'ri kelmasligi sodir bo'ladi, ya'ni bir xil bo'lmagan sintagmema shakllanadi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, sintagtik sathda kvantifikatorlarning kelayotgan til birligining semantik ma'nosiga ta'sir etishi bilan nutq jarayonida miqdor ma'nosi ifoda etiladi.

Substantsional konstruktsiya kvantitativ o'lchov bilan kontekstionallashtiriladi, o'zining mantiqiy-semantik kategorialligini o'zgartiradi va temporallik , aksionallik ifodalar uchun fon bo'lib xizmat qiladi. *Uchta musiqadan keyin Greyenning zerikishi yuqoldi.* Bu o'rinda uchta musiqani tinglashga ketgan vaqt nazarda tutiladi. Bu tendentsiya boshqa kategoriyalarning birliklariga tegishli bo'lishi va obyektiv qonuniyatlarga asoslangan bo'lishi mumkin.

Demak, jahon tilshunosligida ham morfologik sath birliklari miqdor ifodalashda alohida bir tizimni tashkil etishi ta'kidlanadi. Nutqiy jarayonda so'z birikmasi tarzida nutq birligi hosil qilgan ikki til birligining o'zaro sintagmatik munosabati amalga oshiriladi. Son bilan ifodalangan kvantitativ birlikning nominativ birikmasida boshqa mantiqiy-semantik kategoriyalar birliklari bilan

kvantitativlik o'zining bazaviy miqdoriy semantikasini amalga oshiradi.²⁷ Ikkita tosh, ikkita daryo kabi birikuvlarda miqdoriy o'lchov ifodalansa, yashirin mavjud bo'lgan o'lchov oti yordamida ham ifodalanishi mumkin: ikkita suv – ikki stakan suv kabi .

Substantsional komponent diskretlik setkasini to'ldiradi. Taqqoslash uchun quyidagicha tahlil qilish mumkin bo'ladi: tosh – ikkita tosh – toshlar. Diskret chegara setkasini lokal (ikki qirg'oq) va relyatsion (ikki suhbat) komponentga to'ldiradi. Temporal komponentning hisoblilikini ta'kidlaydi. Ikki kun, uch hafta kabi.

Kvantitativlik bilan kvalitativlik birga munosabatga kirisha olmasligidan hosil bo'lgan lakuna har ikki kategoriyaning kesishishiga to'sqinlik qiladigan belgi-xususiyatlari bilan ajrtib ko'rsatiladi. Bunday vaziyatda kvantitativ birlikning faollashishi kuzatiladi, lekin hisoblash obyektisiz qo'llanilib son so'z turkumi uning kategoriyal belgisini o'zlashtirib oladi. O'xshash vaziyat boshqa sonlarning turli mantiqiy-semantik kategoriyalar birliklari bilan birikishida kuzatiladi.²⁸

O'lchov kvantitativi bilan predikativ birikish yuzaga chiqqanda, bunday sintaktik konstruktsiyaning propozitsional ma'nolari quyidagi tarzda ochib beriladi. Sen har doim juda ko'p gapirasan. (Xeminguey)

1. Subyekt lokutiv harakatni amalga oshiradi: gapiryapti
2. Gapirish jarayoni me'yordan ortiq davom etadi (juda uzoq) Predikat fe'lda, "gapirish" akti emas, balki uning davomiyligi asosiy ma'noni yuzaga chiqaryapti. Kvantitativ birlik (ko'p) esa lokutiv harakat hududiga o'z ta'sirini o'tkazyapti.

Rus tilshunosligida kvantitativ belgining kvantitativ bo'lmagan til birliklari tomonidan egallanishi ham tahlil qilinadi:²⁹

- jarlik, okean, ko'chki, tog', uchqun, tomchi kabi leksemalarning sintagmatik darajasida boshqa til birliklari bilan birikishida konstruktsiyaning kvantitativ

²⁷Игошина Т.В. Морфотемный анализ категории количественности в разносистемных языках. Дисс.канд.филол.наук. - У., 2004.

²⁸Игошина Т.В. Морфотемный анализ категории количественности в разносистемных языках. Дисс.канд.филол.наук. - У.,2004.

²⁹ Лашкевич И.А. Генетические конструкции со значением метафорического количества в современном русском языке. Дисс.канд.филол.наук. - Минск,1976

o'rinni egallovchi birlikning shakllanib borishi kuzatiladi. Bu tendensiyaga ko'ra o'lchov va daraja kvantitativ parametrlarining ishtirok etadigan bir xil sintagmemada birliklar uchun o'ziga xos xarakterga ega. Rus tilshunoslari bunday leksemalarni reprezentirovanniy o'lchov otlari deb nomlaydilar.³⁰

- atributiv birikma kvantitativ munosabatlar asosida tobe pozitsiyada komponentlarning o'zaro ta'sirini kuzatish mumkin. Nominatisation-semantik belgi so'z birikmasini genitiv xususiyatining modimini yaratadi va atributiv (aniqlovchi)da kutilayotgan ko'plikning yuzaga chiqishida yordam beradi. Xazina egasi kabi aniqlovchili birikmalar tarkibida miqdorning me'yordan ortiqqligi aniq. Yoki qo'shiq yig'uvchi kabi kabi birikmalarda miqdor ma'nosi ko'rinib turadi.

Substantsionallikka qo'yilgan kvantitativlik son kategoriyasi tarzida shakllantiriladi. Nutqda ko'plik sonning nomufoviqligi asosida turli birliklarning o'zaro ta'sirida tushuncha darajasining bir qator siljishlari paydo bo'ladi.

Jarayonning uzluksizligi:

Bor, qizaloq, ikki shirin so'z orasida va qo'shiqchining mahzun ohanglari haqidagi o'ylarim orasida senga aytib o'tgan gaplarimni unutma.

Bitta jarayon:

Mening ishlarim ko'p.

Demak, tillardagi so'zlarning hammasi ham birlik va ko'plikda birdek qo'llanvermaydi. Ko'pchilik hind-ovrupo tillarida faqat birlikda yoki faqat ko'plikda qo'llaniladigan otlar uchraydi. Faqat birlikda ishlatiladigan so'zlarni tilshunoslikda singularia tantum deb yuritiladi, bunday so'zlarga rus tilidagi *мыка*, *вода* kabi so'zlarni, ingliz tilidagi *oil*, *rise* kabi so'zlarni misol qilish mumkin.

Faqat ko'plikda qo'llaniladigan so'zlarni pluralia tantum deb ataladi va bunday so'zlarga rus tilidagi *сумерки*, *духи*, ingliz tilidagi *goods*, *trousers* kabi so'zlarni kiritish mumkin.

Bir tilda faqat bir xil shaklda qo'llanadigan so'zlar boshqa tillarda ham birlik, ham ko'plik shakllarida qo'llanishi mumkin.

³⁰Игошина Т. В. Морфотемный анализ категории квантитативности в разносистемных языках. Дисс. канд. филол. наук. - У., 2004.

Jahon tilshunosligida kvantitativlik mantiqiy-semantik kategoriya sifatida obyektivatsiya va reprezentatsiyaning farqlangan jarayonlaridan o'tadi, bu kategoriyaning parametrlari mavjudligi bilan izohlanadi. Kvantitativ xususiyatlarning saqlanishida ko'plab til birliklarining baza vazifasini bajarishi, boshqa kategoriyalar belgilarining namoyon bo'lishi, kvantitativ birliklarning nutq vaziyatida ma'nosi kengayishi tendentsiyasi kuzatiladi. Shuningdek, kvantitativ birliklar kontekst ta'siri ostida, ba'zi sintaktik strukturalarda kvantitativlik belgisiga ega bo'lmagan til birliklari tomonidan egallanadi. Demak, ma'lum bir tizimga xos birliklarning turli tillarda qo'llanilishini o'rganish va bir-biriga solishtirish, har bir tilning o'ziga xos jihatlarini tadqiq qilish imkonini yaratadi.

1.2 O'zbek tilshunosligida o'rganilishi

Bizga ma'lumki, tilshunoslikning juda ko'p sohalari bo'yicha qalam tebratgan olim sifatida tarixda Mahmud Koshg'ariy salmoqli o'rin egallaydi. Uning qoldirgan ilmiy merosi faqat o'sha davr uchun katta voqea bo'lib qolmay, bugungi turkologiya, xususan, o'zbek tilshunosligining rivojlanishida ham qimmatli manba bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, biz o'rganishga harakat qilayotgan miqdor ifodalavchi birliklar haqidagi dastlabki qarashlarni ham "Devonu lug'otit turk" asarida uchratishimiz mumkin. Olim fe'llardagi sonning ifodalanishini arab tiliga qiyoslarkan, turkiy tillarda ikkitalik va ko'plik farqlanmasligini, son birdaniga ikki qarama-qarshi guruhga: birlik va ko'plik shakllariga zidlanishini ta'kidlaydi. Muzakkar (muj.r) va muannas (jen.r) ham farqlanmasligini ko'rsatib beradi. Birlik nol shakl orqali (fe'l o'zaklari birlikni bildiradi), ko'plik esa -i(ng), -i(iglar), -i(ngiz) kabilar orqali ifodalanishini misollar bilan izohlaydi. Masalan, bar – baringlar, shu o'rinda olim -i(ng) shakli faqat ko'plikni bildirmasdan hurmat ma'nosini ifodalashi mumkinligi ham aytib o'tgan. "Tinglovchi yoshi katta, hurmatli bo'lsa, hurmat yuzasidan baring deyiladi"³¹ Shu bilan birga birlik va ko'plikni ifodalashda qabilalar o'rtasidagi farqlar ham ochib beriladi. "O'g'uz va qipchoqlar birlikda bar, ko'plida baring deydilar. Ular ko'plik qo'shimchasi -lar ni tushurib qoldiradilar, -lar o'rniga tinglovchi birligida - (i)ngiz qo'llaydilar. Hurmat uchun bir kishiga ham -z orttiradilar, ular tilida bir kishiga nisbatan ham ko'plik ustiga ko'plik qo'llanadi"³², - deydi M.Koshg'ariy. Muallifi noaniq bo'lgan "At-tuhfatuz zakiyatu fil-lug'atit turkiya" asarida ham miqdor ifodalovchi birliklar haqida ma'lumotlar berilgan. Otlar son jihatdan birlik va ko'plik zidlanishiga ega ekanligi, ko'plik a'zosi ko'plik shakligi egaligi, birlik a'zosida esa bunday shakl yo'qligini aytib o'tgan. Shu o'rinda muallif ot va olmoshlarning birlik-ko'plik zidlanishi o'rtasidagi farqlarni ham izohlaydi. Muallif tomonidan olmoshlarda ko'plik ikki xil ifodalanishi ko'rsatiladi. Kishilik olmoshlarida ko'plik affiksatsiyamas, balki fonetik o'zgarish yo'li bilan

³¹ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк.Т.1 – 3. – Тошкент: Фан, 1960 – 1963. 51-бет

³² Ўша асар. 52-бет

ifodalanishi aytiladi. Masalan, men – sen, biz – siz kabi. So'roq va ko'rsatish olmoshlarida birlik-ko'plik zidlanishining ifodalanishi otlarga o'xshashini ta'kidlaydi: kim – kimlar, bu – bular tarzida.

Egalikning uch shaxs bo'yicha maxsus ko'rsatkichlari mavjudligi va bu ko'rsatkichlar birlik hamda ko'plik bo'yicha farqlanishi bayon qilinadi: bashim – bashimiz, bashing – bashingiz, bashi – bashlari kabi. Asarning "Sonlar bo'limi" sarlavhali qismida sonlar haqida ham keng ma'lumotlar beriladi.³³ Sonlarning to'rt darajasi ajratiladi:

1. Birlar (birdan to'qqizga qadar bo'lgan sonlar): bir, ikki, uch, do'rt, besh, alti, yadi, segiz, tuquz.
2. O'nlar (o'ndan to'qsongacha bo'lgan sonlar): o'n, yegirma, o'ttuz, qirq, elli, atmish, yetmish, sakson, to'qson.
3. Yuzlar (yuzdan minggacha bo'lgan sonlar): yuz, ikki yuz, uch yuz
4. Minglar (mingdan yuqori bo'lgan sonlar). Bunda birlarga mansub sonlar oldin, ko'p sonlar esa keyin keladi: ikki ming, uch ming, to'rt ming kabi

Asarda o'nliklar bildiruvchi tarkibli sonlarda oldin o'nlikni, undan so'ng birlikni bildiruvchi so'zlar kelishi, ba'zan esa buning aksi ham bo'lishi mumkinligi aytiladi: yigirma bir – bir yigirma kabi.

Tartib sonlar sanoq sonlarga –inchi, -unchi, -lanchi, -lanji affikslarini qo'shish orqali hosil qilinishi aytiladi. Masalan, ikkinchi, uchunchi, do'rtunchi, bechinchi, birlanji kabi.

Shu bilan birga asarda fe'llarning shaxs va son paradigmasi ham beriladi.

Birlik Ko'plik

So'zlovchi: kelmishman (kelmisham) kelmishbiz

Tinglovchi: kelmishsan kelmishsiz

O'zga: kelmish kelmishlar

Boshqacha ko'rinishi ham beriladi:

Birlik Ko'plik

So'zlovchi: kelibturman kelibturimiz

³³ Нурмонов А. Танланган асарлар. II жилд. Тошкент: Академнашр, 2012.

Tinglovchi: kelibtursan kelibtursiz

O'zga: kelibtur kelibturlar

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, "At-tuhfa" asarida muallif turkiy tillar morfologiyasi, xususan, miqdor ifodalovchi birliklar xususida ham qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Asarni turkiy tillarni ilk grammatikasi deyish mumkin³⁴.

Tilshunoslikka oid maxsus asar yozmagan bo'lsa ham Z.M.Bobur o'zining "Boburnoma" asarida tilshunoslikka oid qimmatli fikrlarni bayon etgan. Xususan, nomlarni bir necha tematik guruhlariga ajratar ekan, o'lchov nomlari haqida ham to'xtalib o'tadi. O'lchov nomlariga rati, masha, misqol, tula, ser, botmon, moni, minosa, lak, kurur, arb, padam kabi so'zlarni kiritadi.

O'zbek tilshunosligi tarixida sifatlar narsalarning qandayligini bildirsa, sonlar qanchaligini bildirishi bilan undan farqlanishini, har ikkisi ham narsaning belgisini bildirgani va predmet bilan birgalikda tasavvur qilingani uchun ularni sifatlar qatorida o'rganish mumkinligi haqidagi fikrlarni Abdurauf Fitratning lingvistik qarashlarida kuzatishimiz mumkin.

Fitrat sonlarni tub va yasama turlarga ajratadi. Tub sonlar sanoq sonlar hisoblanadi. Ularga bir, ikki, uch, to'rt, o'n, yigirma, qirq besh kabi sonlarni kiritadi. Yasama sonlarni ma'nosi va yasovchi qo'shimchalariga ko'ra quyidagi turlarga ajratadi³⁵:

1. Sira sonlar
2. Ulush sonlar
3. Chama sonlar
4. Sanalmishsiz sonlar
5. O'rtoqlik sonlar
6. Oshirma sonlar
7. O'lchov sonlar

³⁴ Нурмонов А. Танланган асарлар. II жилд. Тошкент: Академнашр, 2012.

³⁵ Фитрат А. Ўзбек тили қоидалари тўғрисида бир тажриба. Сарф. Китоб 1. – Самарқанд – Тошкент: Ўздавнашр. 1930.

Tub sonlarga –(i)nchi qo'shimchasi qo'shilishidan hosil bo'lgan sonlar sira sonlar qatoriga kiritiladi. Bunga misol qilib birinchi, ikkinchi shaklidagi sonlarni keltiradi. Tub sonlarga –(a)r, -tadan qo'shilishidan hosil bo'lgan bittadan kitob, bitar daftar kabi sonlarni ulush sonlar qatoriga kiritadi.

-lab qo'shimchasi qo'shilgan sonlar chama sonlar qatoriga kiritiladi: o'nlab kitob, yuzlab kishi kabi. Shu bilan birga Fitrat sonlarni juft qo'llaganda ham chama ma'nosi yuzaga chiqishini aytadi.

Sanoq sonlarga –ov qo'shimchasi qo'shilishidan sanalmishsiz son hosil bo'lishi aytiladi. *Ular uchov bordilar*. Bunday qo'shilishdan hosil bo'lgan sonlarni otlar qatorida o'rganish lozimligini ta'kidlaydi va bu fikri bilan sonlarning otlashishiga ishora qiladi.

Sanoq sonlarga –ala qo'shimchasi qo'shilishidan hosil bo'lgan sonni o'rtoqlik son deb ataydi. Chunki bunday sonlar bir ishni birdan ortiq kishi bajarganligi bilan izohlaydi: *Biz ikkalamiz keldik*. O'rtoqlik sonlarini ham sanalmishsiz son kabi otlar qatorida o'rganish kerakligini aytadi.

Sanoq sonlarga –larcha qo'shimchasi qo'shib oshirma son hosil bo'lishini aytadi: yuzlarcha, minglarcha kabi.

Yuqoridagilardan tashqari, bugungi tilshunoslikda numerativ so'zlar nomi bilan o'rganilayotgan o'lchov bildiruvchi so'zlar bilan birga qo'llaniluvchi sonlarni bir butun holda o'lchov sonlari deb nomlaydi. *o'n qop arpa, bir yutum suv* kabi.

Shuningdek, Fitrat sonlarning ko'plik shakli bilan birga qo'llana olish olmasligiga ham to'xtalib o'tadi. O'zi ma'nosi va yasovchi qo'shimchasiga ko'ra ajratgan sira, chama, o'lchov sonlar va bu sonlarning sanalmishlari ko'plik shakli –lar bilan birga qo'llana olmasligini ta'kidlaydi.

Sanalmishsiz va oshirma sonlar shu bilan birga bularga qo'shib kelgan otlar ko'plik shakli –lar bilan qo'llana olishi mumkinligini aytib o'tadi.

Fitrat fe'lining shaxs kategoriyasi olti shaklni o'z ichiga olishini aytadi. Bu olti shaklni quyidagicha ifodalaydi:³⁶

³⁶ Фитрат А. Ўзбек тили қоидалари тўғрисида бир тажриба. Сарф. Китоб 1. – Самарқанд – Тошкент: Ўздавнашр. 1930.

Birlik: 1 – yozdi, 2 – yozdim, 3 – yozding, Ko'plik: 4 – yozdilar, 5 – yozdik, 6 – yozdingiz. Xuddi shu o'rinda e'tibor berish kerakki, shaxs paradigmasida birinchi raqamda III shaxsning berilishi ahamiyatlidir. Bu o'rinda muallif fe'lining shaxs ma'nosini ifodalovchi ko'rsatkichga asoslanadi³⁷, - deydi tilshunos olim A. Nurmonov. Xuddi otlarda kelishiklarning bosh shakli boshqa shakllarining hosil bo'lishida asos bo'lgani va birinchi o'rinda berilgani kabi, fe'llarning shaxs paradigmasida ham I va II shaxs qo'shimchalari qo'shilishi uchun asos bo'lgan shakl bosh shakl sifatida birinchi raqam bilan beriladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, Fitrat "Sarf" asarida o'zbek tilining morfologiyasi yoritishdagi ilk tajribani boshlab bergan tilshunosdir. Bu asarda qator masalalar bilan bir qatorda o'zbek tilidagi miqdor ifodalovchi birliklar haqida ham o'z mulohazalarini izchil bayon etgan. Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqish aytish mumkinki, o'zbek tilshunos olimlari tomonidan ham miqdor ifodalovchi birliklar kategoriya sifatida o'rganilgan. Shular asosida XX asrda o'zbek tilshunosligida miqdor va miqdor ifodalovchi birliklar masalasi tadqiqiga bag'ishlangan bir qator ilmiy ishlar chop etildi. Ushbu kategoriyalar dastlab tilshunos olim Ayub G'ulomov tomonidan tadqiq qilingan³⁸. O'zbek tilshunosligida tilning ma'lum sathiga xos alohida birlik yoki hodisani, uning sistema tarkibida ekanligini idrok etgani holda, maxsus ilmiy tadqiq qilishni Ayub G'ulomov boshlab berdi. Olimning alohida olingan affikslarga oid ishlari fikrimizni tasdiqlaydi. A.G'ulomov "O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi" asarida, asosan, ko'plikning morfologik yo'l bilan ifodalanishi haqidagi ilmiy qarashlarini bayon qiladi. Shu bilan birga o'zbek tilida ko'plikning ifodalanishi quyidagi uch yo'ldan biri orqali amalga oshirilishi mumkin ekanini aytib o'tadi:

1. Morfologik ifodalanish (bolalar)
2. Leksik ifodalanish (xalq)
3. Sintaksistik ifodalanish(to'da-to'da bola)

³⁷ Нурмонов А. Танланган асарлар. II жилд. Тошкент: Академнашр, 2012.

³⁸ Ғуломов А. Ўзбек тилида кўплик категорияси. Тошкент, Ўздавнашр. 1944.

A.G'ulomovning xuddi shu qarashlari sathlararo munosabatlar yoki har bir sathning o'ziga xos jihatlarini farqlashdagi dastlabki ilmiy qarashlar deb aytishimiz mumkin. Bu asarda tilshunos olim faqat ko'plik ma'nosining ifodalanishini bir necha yo'lini aytib o'tgan bo'lsa, keyinchalik shu qarashlar asosida o'zbek tilshunos olimlari tomonidan umuman miqdor ifodalovchi birliklarning barchasi shu uch yo'ldan biri orqali ifoda etilishi e'tirof etildi.

Olim bu masalaga logik jihatdan yondashilganda kishilar ham, ko'p kishi ham, oz kishi ham, xalq ham ko'plikni, jamlikni anglatishini, shu bilan birga bu o'rni bilan bir-biridan farqlanuvchi hodisalar ekanini aytadi va farqlarini ko'rsatib beradi: "... kishilar sostavi toqlarga bo'linuvchi, shu ayrimliklari to'la anglashilgan haqiqiy ko'plikdir. U ko'plik soniga ega bo'lib, undagi son miqdori turlilikni ko'rsatib turadi (kishi – kishilar); xalq esa kishilar darajasidagi son bezagiga ega bo'lmay, bir butun deb qaralgan to'dani bildiradi"³⁹. Olimning ushbu qarashlari rus nazariyotchi tilshunos olimi Potebnyaning mazkur masala yuzasidan bildirgan fikrlariga mos keladi, o'rganilishi zarur bo'lgan lingvistik hodisaning semantik mohiyatiga to'liq mos keladi.

Shu o'rinda aytish mumkinki, A.G'ulomov ko'plik kategoriyasi haqida gap ketganda ot va qisman kishilik olmoshlariga asosiy e'tiborni qaratgan. Olim fe'llardagi ko'plik holati ot yoki kishilik olmoshining soniga qarab moslanadi, deydi. Lekin bizningcha, bu o'rinda ko'plik ma'nosini ifodalayotgan til birligi faqatgina ega vazifasida kelgandagina bu qarash asosli bo'ladi. Chunki, belgilash olmoshlari va ravishlarning ba'zilarida xuddi ot va kishilik olmoshlaridek miqdorning me'yordan ortiqlik, ya'ni ko'plik ma'nosi anglashilib turadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, A.G'ulomov dialektik falsafa nuqtai nazaridan lisoniy birlik mohiyatini ochishga, grammatik tadqiqotning nazariy asosini ishlab chiqishga, tadqiq metodlari masalasiga yaxlit yondashishga, narsaning mohiyatini ochib berishda xususiy tomonni umumiy tomonga buysundirishga, tasvir subyektini va obyektini tushunishga asoslangan chuqur ichki o'xshashlikning tashqi o'xshashlikdan afzalligini isbotlashga, lisoniy birlikni

³⁹ Фуломов А. Ўзбек тилида кўплик категорияси. Тошкент, Ўздавнашр. 1944.

mujassam imkoniyat butunligi sifatida belgilashga, substantSIONAL birlikda mavjud bo'lgan umumiylikni nutqda xususiylashtirishga – imkoniyatni voqelantirishga, til hodisalariga zohiran emas, balki botiniy (idrokiy) yondashish zarurligiga, ularni o'zaro sistema ishtirokchilari sifatida tadqiq etishga, iyerarxiyada, dinamikada kuzatishga e'tiborni qaratdi.

XXI asrning boshlariga kelib, "birlik o'z formal ko'rsatkichiga ega emas ekan, obyekt tilida son kategoriyasi yoki birlik haqida gapirishga hojat yo'q" tarzidagi fikrlarning paydo bo'layotganiga qaramay⁴⁰, A.G'ulomov fikrlari o'zining asosililigi bilan o'zgacha, yangi fikr sifatida saqlanib qolyapti.

Shundan so'ng ushbu hodisalarni o'rgangan Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, I. Rasulov kabi tilshunoslar A.G'ulomov qarashlariga tayanib son kategoriyasini xususiyatlarini batafsilroq yoritib berdilar. Y.Zulfiyevning "Jamlik kategoriyasining o'ziga xos xususiyatlari"⁴¹, H.Abdurahmonovning "Juft so'zlarda son kategoriyasi", E.Fayzullayevaning "Birlik va uning kategoriyal mohiyati" singari ishlari shular jumlasidandir. Bu olimlar tasviriy metod asosida son kategoriyasi shakllarining nutqiy ma'nolarini ko'rsatib chiqqan bo'lsalar, Hamid Ne'matov va Sh.Shahobiddinova sistem yondashuvga asoslanib son kategoriyasi shakllarining xususiyl (nutqiy) grammatik ma'nolari orasidagi munosabatni tiklash asosida umumiy (lisoniy) grammatik ma'nolarini ochib G'.Zikrillayev uzvli va matniy tahlildan foydalanib, otning son kategoriyasi shakllariga tejamkorlik xosligini aniqladi. Shu bilan birga olim fe'lda son ma'nosi shaxsdan alohida kategoriya hosil qilishini ko'rsatib o'tdi.

Tilshunos olim Y.Zulfiyev o'zbek tilshunosligida jamlik kategoriyasi atamasi deyarli qo'llanilmasligini, jamlovchi otlar, jamlovchi sonlar kabi atamalar bu leksik-grammatik kategoriyalarning mohiyatini to'liq va to'g'ri aks ettira olmasligini, chunki mazkur atamalarning ma'nosi otlar, sonlar yoki narsalarni jamlar ekan, degan xulosaga olib kelishi mumkinligini aytib o'tadi⁴².

⁴⁰ Хожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. Тошкент: Фан, 2010.

⁴¹ Зулфиев Я. Жамлик категориясининг ўзига хос хусусиятлари// Ўзбек тили ва адабиёти, 1975, 4-сон

⁴² Ўша асар. 26.

Miqdor ifodalovchi birliklar xususida o'z ilmiy qarashlarini bildirgan tilshunoslarning deyarli hammalari bu birliklarni tilning barcha sathlarida kuzatish mumkinligini e'tirof etadilar. Shu bilan birga tadqiqotchilarning deyarli barchalari fonetik sathda kvantitativlikning yuzaga chiqishini izohlashda unlining cho'ziq talaffuz qilinishini keltirish bilan cheklanadilar. Lekin undoshning takrori orqali ham miqdor ma'nosi yuzaga chiqishi mumkin: *Qizzziq, judayam qiziq* tarzida. Tilshunos olim M.Mirtojiyevning bu masaladagi qarashlari juda ahamiyatli. Olim "O'zbek tili fonetikasi" asarida bu masalaga oid qarashlarini bildiradi. O'zbek tilida leksik urg'u shu kunga qadar dinamik urg'u sifatida e'tirof etib kelinar edi. Tilshunos olim M.Mirtojiyev bu fikrni to'laligicha rad etib, rus turkolog olimlari tomonidan o'zbek tili fonetikasi dastlab o'rganilganligi va shuning ta'sirida rus tilidagi zarb urg'usi o'zbek tiliga tadqiq etilganini ta'kidlaydi. O'z fikrlarini ot so'z turkumiga oid ruscha va o'zbekcha so'zlarning eksperimental xulosalarini taqqoslash bilan asoslaydi. Natijada o'zbek tilidagi leksik urg'u kvantitativ urg'u degan xulosaga keladi⁴³. Asos sifatida o'zbek tilshunosligida o'zining eksperimental tadqiqotlari bilan ko'zga ko'ringan olim A.Mahmudovning "unlilarning cho'ziqligi so'z urg'usini belgilaydi", - deganda kvantitativlikni nazarda tutgan deya ta'kidlaydi. Kvantitativlikni asoslashda M.Mirtojiyev so'zda undoshning qavatlanishi urg'uli bo'g'in tarkibidagi unlining cho'ziqligini orttirishini ta'kidlaydi. Olim kvantitativlik o'zbek tili uchun qonuniyat hisoblanishini alohida e'tirof etadi.

Leksik urg'usi kvantitativ bo'lgan tillarning so'zlaridagi bo'g'in joylashuvi tartibi qonuniyatiga ham e'tibor berishga to'g'ri keladi. Olim o'zbek tilidagi urg'ular kvantitativ urg'ular ekanini izohlaydi. Lekin uni aksariyat tilshunoslar bog'li urg'u, so'zning so'nggi bo'g'iniga tushadi, deb ko'rsatadilar.

M.Mamajonova miqdor ifodalovchi birliklarning aynan morfologik sathda ifodalanishi yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda. Tadqiqotchi "Kvantitativlik (miqdor kategoriyasi) va uning fe'llarda ifodalanishi"⁴⁴, nomli

⁴³ Mirtojiyev M.O'zbek tili fonetikasi.Toshkent.Fan-2013

⁴⁴ Мамажонова М. Квантитативлик (миқдор категорияси) ва унинг феълларда ифодаланиши//Тил ва адабиёт таълими. 2009,5-сон

maqolasida o'zbek tilida miqdor ma'nosining yuzaga chiqishini ta'minlovchi fonetik, leksik, grammatik vositalar ko'pligini, ayniqsa, morfologik sathda so'z turkumlari yordamida miqdor ma'nosining ifodalanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Bulardan tashqari, F.Safarov "O'zbek tilida son-miqdor mikromaydoni va uning lisoniy nutqiy xususiyati"⁴⁵ mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida bu masalaga maydon sifatida yondoshadi. Shu bilan birga tadqiqotchi o'zigacha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va bildirilgan fikrlarda miqdor ifodalovchi birliklarga kategoriya sifatida qaralgani, aslida esa o'zbek tilida son-miqdor ma'nosini ifodalovchi lug'aviy, sintaktik, so'z yasovchi va nolisoniy vositalar mavjud bo'lib, son kategoriyasi va fe'lning shaxs-son kategoriyasi bilan birgalikda yagona umumiy mazmuniy vazifa bajaruvchi tizim hosil qilishini ta'kidlaydi⁴⁶.

Bunda grammatik, leksik, sintaktik, fonetik va g'ayrilisoniy vositalar birgalikda olib qaralganda o'zbek tilining son-miqdor ma'nosini ifodalash sistemasi bu vositalarning o'zaro aloqa munosabati, mazkur ma'noni ifodalashdagi salmog'i ochib beriladi.

Demak, miqdor ifodalovchi birliklar til sathlari o'rtasida keng tarqalgan tasniflovchi belgilardan hisoblanadi. Ushbu belgini muayyan sathlarni ajratishda yohud o'zaro qiyoslanuvchi sathlarning birliklari o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rish mumkin. Kvantitativ belgi til vositalaridan keng foydalanilgan holda ayrim tovushdan tortib butun bir matnlar orqali ham ifoda qilinishi kuzatiladi. Demak, fonetik sathdan matn sintaksisiga qadar bo'lgan sathlarda miqdor ifodalovchi birliklarni kuzatish mumkin.

Tilshunos olim A.Mamajonov supersintaktik butunlik temasi bilan aloqador remaning asosiy mazmuniy mundariyasi sifatida miqdor bilan aloqador natijani ham belgilash mumkinligini aytadi. Bu turdagi tema-rema munosabatiga ega bo'lgan supersintaktik butunliklarni bir qator belgilari bilan farqlanishi ko'rsatib

⁴⁵Сафаров Ф.Ўзбек тилида сон-миқдор микромайдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти. филол. фан. ном. дисс. Самарқанд - 2004

⁴⁶ Ўша асар. 3-б.

o'tilgan. Bunda tema miqdor ifodalaydi. Remada esa ana shu miqdorga xos xususiyatlar, undan kelib chiquvchi oqibat-natijaga oid ma'lumotlar, voqea-hodisalar sanab ko'rsatiladi, izohlanadi. Bularning barchasi umumlashib yangi bir tema – rema munosabati – miqdor natijani hosil qiladi.⁴⁷

Qish kunlari bir tutam, "ha, deguncha" kech bo'lg'an, mehmonlarning kelishkaniga yarim soatlab vaqt o'tkan edi. Qutidor mehmonlarni ixlos va samimiyat bilan kutar, ziyofat quyuq-suyuqlari bilan to'lib tekis davom etardi. To'ybeka ichkari bilan tashqarig'a yugurib dasturxon yangilar, choy tashir edi. Xizmat tugalayozg'andan keyin To'ybeka o'zining sovub qolg'an oshini yemak uchun Oftob oyimlar yonig'a o'lturdi. (A.Qodiriy.O'tkan kunlar).

Kvantitativlik kategoriyasi tilda lokallik, temporallik, substansionallik kabi boshqa kategoriyalar bilan uzviy aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Masofa, uzunlik, kenglik, balandlik, hajm, maydon kabilarni o'z ichiga jamlagan "makon" tushunchasi miqdoriy tavsif asosida aniqlashadi, yorqinroq ifodalanadi. Makon esa lokallik kategoriyasi bilan bog'liq bo'lib, u miqdoriy tavsif bo'lmasa, quruq kategoriya hisoblanadi⁴⁸.

Umumiy ma'noga ega bo'lgan turli sath birliklarini kompleks tahlil qilish ushbu birliklarni grammatik-leksik yoki funksional-semantik maydon sifatida o'rganishga asos bo'ladi. Fizikadagi magnit maydon nazariyasi ta'sirida XX asrga kelib tilshunoslikda ham maydon tushunchasining nazariy talqini yuzaga keldi. Buning sababi shundaki, lisoniy birliklarning til sistemasidagi qiymati va qo'llanilishi uni qurshab turgan boshqa til birliklariga bog'liq. Tilshunoslikda maydon atamasi umumiy ma'no asosida birlashib, o'zaro munosabatga kirishuvchi lisoniy va nolisoniy vositalar sistemasiga nisbatan aytiladi. Dastlab lisoniy maydonni nazariy asoslash G.Ipsen, I.Trir, V.Portsig, L.Vaysgerber, A.Yolles kabi nemis tilshunoslari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda nazariy ifodasini topgan. O'tgan asrning 60-yillariga kelib esa maydon atamasi tilning grammatik tuzilishiga nisbatan ishlatila boshladi. M.M Guxman, E.V.Guliga, E.I.Shendels,

⁴⁷ Мамажонов А. Абдупаттоев М. Матн назарияси. Фарғона. 2016.

⁴⁸ Сафаров Ф. Ўзбек тилида сон-миқдор микромайдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти. Филол.фан.ном.дисс.Самарқанд - 2004

A.V.Bandarko kabi tilshunos olimlar grammatik hodisalarni maydon sifatida talqin qildilar.

O'zbek tilshunosligida esa til hodisalarini tahlil qilishda maydon asosida yondashuv 80-yillardan boshlandi. M.Abduvaliyev sintaktik to'siqsizlik maydonini, SH.Iskahdarova shaxs leksik maydonini, H.Hojiyeva esa hurmat maydonini tadqiq qildilar. Biroq grammatik maydon chegarasi hamda uning tuzilishini belgilashda tilshunoslar tomonidan bildirilayotgan fikrlar turlicha.

O'zbek tilshunosligida son-miqdor maydoni va uning o'ziga xos xususyatlarini belgilashda olib borilgan bir qator ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, shu kungacha miqdor ifodalovchi birliklar umumiy planda o'rganilgan. Shu mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan tilshunos F.Safarov "miqdor" umumiy semasi orqali birlashgan lug'aviy, grammatik vositalarni tahlil qiladi. Tilshunos "o'zbek tilida son-miqdor ma'nosini ifodalovchi lug'aviy, sintaktik, so'z yasovchi va nolisoniy vositalar mavjud bo'lib, yagona umumiy vazifa bajaruvchi tizim hosil qiladi", deydi. Shundan kelib chiqib, miqdor tushunchasi o'zbek tilida murakkab sathli mikromaydon hosil qilishini, ular o'zaro bog'langan uchta maydondan iboratligini aytadi⁴⁹:

1. mavjudot son-miqdori maydoni
2. o'lchov-miqdor maydoni
3. harakat miqdori maydoni

Bularning orasida son-miqdor kichik maydon bo'lib, miqdor mikromaydonining bir qismini tashkil etadi. Shu o'rinda mavjudotlar, narsa-buyumlarning sanalish xususiyatini ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak, bizningcha. Hajm va harakat miqdori maydoni tarkibiga kiruvchi miqdor ifodalovchi birliklarda sanalish xususiyati ko'rsatilmaydi.

Tilimizda miqdor ma'nosini ifodalovchi lisoniy, nolisoniy, sintaktik, so'z yasovchi, shakl hosil qiluvchi vositalar mavjud. Son-miqdor maydonining umumiy ma'nosi yuqorida aytib o'tilganidek, mavjudotning, narsa-buyumlarning sonini

⁴⁹ Сафаров Ф. Ўзбек тилида сон-миқдор микромайдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти. Филол. фан. ном. дисс. Самарқанд - 2004

ko'rsatishdir. Maydonning lisoniy-nutqiy xususiyati deganda mazkur ma'noni ifodalovchi barcha lisoniy va nolisoniy vositalarning tuzilishi, tarkibi, yasalishi, asosiy va qo'shimcha ma'nolari, vazifasi va qo'llanilishi tushuniladi.

Tadqiqotchi F.Safarov lisoniy vositalarning tilning turli bo'limlariga taalluqli ekanligini e'tirof etib, quyidagilarni sanab o'tadi.

1. otning son-miqdor kategoriyasi
2. otning o'zak, negizi
3. otlashgan so'z
4. fe'lning son kategoriyasi
5. fe'lning o'zak negizi
6. son turkumi
7. olmosh turkumi
8. egalik kategoriyasi
9. sifatning o'zak, negizi
10. ravishning o'zak, negizi
11. juft va takroriy so'z (katta-kichik yig'ildi, savat-savat olmalar terildi)
12. so'z birikmasi (xushxabar ustiga xushxabar)
13. ko'makchili ot (akam bilan)
14. ibora (burnu qulog'igacha to'ldirish shartmi?)
15. unlini cho'zib talaffuz qilish (odam ko'o'o'p bo'ldi).

Nolisoniy vositalarga esa tinglovchinig xabardorligi, mantiqiy ayonlik, matnning ijtimoiy-tarixiy xususiyati, tana a'zolari bilan imo-ishora qilish, turli belgilar yordamida xabar berish kabilar kiradi. Ushbu fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, hozirgi o'zbek tilida miqdor ifodalovchi birliklar maydoni yadro, markaz va chekka qismdan yoki asosiy qism, unga yondosh qismlardan tashkil topadi, deyish mumkin.

Tadqiqotchi M.Mamajonova ham miqdor ifodalovchi birliklarni barcha til sathlariga taalluqli ekanini e'tirof etgani holda, yordamchi so'zlar ham kvantitativ ma'no yuzaga chiqarishini aytadi: ".....kvantitativlik ma'nosi barcha sath birliklari orqali ifoda qilinish ma'nosiga ega. Shu bilan birga, yordamchi so'zlar ham

kvantitativ ma'noni yuzaga chiqaradi"⁵⁰. M.Mamajonava ilmiy izlanishlarida ko'makchi, bog'lovchi hamda yuklamalarning turli o'lchamlarni belgilashdagi ishtiroki xususida fikr yuritadi.

Bosh kelishikdagi so'zlar bilan birga qo'llanuvchi ko'makchilarga bilan, uchun, singari, yanglig', sayin, sari, sababli, orqali, tufayli, chog'i, osha, boylab, bo'yicha, uzra, ichra, bo'yi, chamasi, haqda, holda, kabi so'zlar kiradi. Bilan ko'makchisi o'zaro hamkorlikda, birgalikda biror topshiriq, vazifa, yumushni bajarish ma'nosida ishlatiladi. Bilan so'zi birdan ortiqlik, juftlik, to'da, to'siqsizlik va harakarning tezligi, davomiylik singari kvantitativ ma'nolarni yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladi. Xurosonlik bir podsho turklar bilan jahg qilish qasdida Termiz ro'parasida Jayhunddan kechib o'tibdi. ("Ajdodlar o'giti"). Sattor tortingan sari, Roziya dadillanar edi (P.Q.) Albatta, men bu dam olib yurganlarning ko'pisi yil bo'yi qilgan mehnatining rohatini ko'rayotganini, ba'zilar davolanib yurganini bilar edim, tushunar edim.(P.Q.) Shuningdek, "jon-dili bilan", "jon-jahdi bilan" iboralari tarkibida ham bilan ko'makchisi ishlatib, "butun kuchini sarflagan holda", "tirishib" ma'nolarni anglatadi.

Jo'nalish kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanuvchi ko'makchilardan tomon, qadar, qarab, qarata kabilar harakatning yo'nalishi, vaqt jihatdan, makon jihatdan chegarasi, harakat yo'nalgan tomon, o'lchov hamda miqdor kabi ma'nolarga ega hisoblanadi: Oyoq sharpasi bolaxonaga tomon kelar, qiz tin olmay kutar edi. (A.Q).

Chiqish kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar so'ng, keyin bevosita ish-harakatning bajarilish vaqti bilan bog'liqdir. Beri ko'makchisi ish-harakatning boshlanish vaqtini ifoda qiladi. Uning sinonimi buyon ko'makchisi sanaladi. Burun va ilgari ko'makchilari zamon tushunchasiga taalluqli bo'lib, ish-harakatning nutq so'zlanib turgan vaziyatdan avval yuz berganini anglatadi: *Taftish va so'roqdan keyin sulton badaviyga ijozat berdi ("Ajdodlar o'giti"); Kumush onasining yumushiga biroz qarab turgandan keyin tashqariga tomon ketdi.* (A.Q.)

⁵⁰Мамажонова М.Квантитативликнинг тил бирликларини таҳлил қилишдаги аҳамияти//Молодой учёный. 2016, 3-сон

Yuklamalar soʻz yoki gapga qoʻshimcha maʼno yuklaydi. Ana shu qoʻshimcha maʼnolardan biri kvantitativlik maʼnosidir.⁵¹ Yuklamalar ichida -gina yuklamasi chegarani belgilab beradi, oʻzi bogʻlangan soʻz yoki gapni ayirib koʻrsatishga xizmat qiladi. Bu maʼnoni yuzaga chiqarish uchun faqat yuklamasidan ham foydalanish mumkin.

Shu oʻrinda solishtirish uchun, tadqiqotchi F.Safarov lisoniy vositalarni guruhlariga ajratganda ham koʻmakchili ot atamasini qoʻllaganiga eʼtibor berish kerak. Lekin bu oʻrinda M.Mamajonovadan farqli holda F.Safarov koʻmakchili ot birikmasidan foydalanadi, koʻmakchi mustaqil soʻz bilan bogʻlangandagina kvantitativlik belgisini namoyon qilishi mumkinligini eʼtirof etadi.⁵²

Bizningcha ham, mustaqil leksik-grammatik leksemalar doirasida emas, balki yordamchi soʻzlar orqali ham kvantitativlik maʼnosi ifoda qilinishini kuzatish mumkin, degan qarash biroz muammoli masaladir. Vaholanki, yordamchi soʻzlar lugʻaviy maʼno anglatmasligi barchamizga maʼlum. Yordamchi soʻzlar kontekstning tarkibida miqdor maʼnosini yuzaga chiqarishga xizmat qilishi mumkin. Akam soʻzidagi miqdor yakkaalikni ifodalayotgan boʻlsa, akam bilan koʻmakchili ot tarkibida miqdorning birdan ortiq ekanligi ifodalanyapti.

Maʼlumki, miqdor kategoriyasi “sifat” kategoriyasi kabi borliqning umumiy xossalardan biri hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan V.Z.Panfilovning fikriga tayansak, mazmuniy miqdor kategoriyasi obyektiv olamning miqdoriy aniqligi inʼikosi natijasidir.⁵³

Demak, til va tafakkur dialektik aloqadorlikda boʻlgani bois barcha asosiy mazmuniy kategoriyalar, xususan, miqdor kategoriyasi ham tilda oʻz aksini topadi. Oʻzbek tilida mavjud tadqiqotlarda miqdoriy munosabatlarning ifodalanishi uch konstant – universal maʼnolar asosida shakllanadi.

Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki, miqdor kategoriyasining tilda aks etishi turlicha boʻlib, vositalari ham rang-barangdir. Xususan, oʻzbek tilshunosligida olib

⁵¹ Мамажонова М. Квантитативлиқнинг тил бирликларини таҳлил қилишдаги аҳамияти // Молодой учёный. 2016, 3-сон

⁵² Сафаров Ф. Ўзбек тилида сон-миқдор микромайдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти. Филол. фан. ном. дисс. Самарқанд - 2004

⁵³ Панфилов В.З. Философские проблемы языкознания. М: Наука, 1977.

borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanayotgan miqdor ifodalovchi birliklar tilning barcha sathlari uchun xos bo'lib, bu haqda tilshunoslar tomonidan turlicha qarashlar bildirilgan. Bizningcha ham, miqdor ifodalovchi birliklarning hammasi xususiy belgilariga ko'ra farqlanadi, umumiy belgisi, ya'ni miqdor ma'nosini yuzaga chiqarishi bilan yaxlit bir tizim hosil qiladi. Shuningdek, miqdor ifodalovchi birliklar tilning turli sathlariga mansubligi uchun kategoriya atamasini qo'llash torroq tushunchani ifodalaydi. Tilshunos F.Safarov ta'kidalganidek,⁵⁴ miqdor ifodalovchi birliklarni maydon asosida o'rganilganda shunday ma'noni ifodalovchi barcha lisoniy va nolisoniy vositalarni tahlil qilish mumkin bo'ladi.

⁵⁴ Сафаров Ф. Ўзбек тилида сон-миқдор микромайдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти. Филол.фан.ном.дисс.Самарқанд - 2004

I BOB BO'YICHA QISQA XULOSA:

1. Kvantitativlik tilda narsalar, odamlar, moddalar, masofa kabilarni aniq yoki taxminiy o'lchash zarurati tufayli yuzaga kelgan. Kvantitativlik tasnif qilish xususiyatiga ega bo'lgan inson tafakkurining murakkab mahsuli hamda rang-barang shakllarida namoyon bo'luvchi kategoriyadir.
2. Kvantitativ tahlil til hodisalarini aniq va atroflicha tadqiq qilish imkonini beradi, shu bilan birga til birliklarini aniq va tartibli joylashtirish, to'g'ri o'rinlashuviga erishishga ko'maklashadi. Miqdor logik kategoriyasining mazmunini yaxshiroq oydinlashtirishga ko'plab fanlar qatori til faktlarini tahlil qilish orqali ham erishiladi.
3. Tilshunoslarning kvantitativlik kategoriyasiga nisbatan bildirgan fikrlari hamda bu kategoriyani tasniflash bo'yicha qilgan takliflari turlicha. Kvantitativ metodlar, ayniqsa, statistika tilshunoslikda allaqachon o'zining mustahkam o'rnini egallagan.
4. Miqdoriylik qobig'i turli rivojlangan tillarda o'zining serqirraligi bilan ajralib turadi. Yevropa tilshunosligida va rus tilshunosligida kvantitativlik turli aspektlarga ko'ra tahlil qilingan. Xususan, rus tilshunoslari tomonidan kvantitativlik masalasiga chuqur yondashilgan, qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan, maxsus tezaruslar tuzilgan. Ularni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, kvantitativlik masalasi muhim izlanishlar uchun manba bo'lib xizmat qiladi, fanlararo integratsiya asosida ko'plab tasniflarga asos bo'ladi.
5. O'zbek tilshunosligida ham miqdor va miqdoriylik masalasiga bag'ishlangan bir qator ilmiy izlanishlar chop etilgan. Ularda o'zbek tilining o'ziga xos bo'lgan umumiy va xususiy tomonlaridan kelib chiqib turlicha fikrlar bildirilgan.
6. Til va tafakkur dialektik aloqadorlikda bo'lgani bois barcha asosiy mazmuniy kategoriyalar, xususan, miqdor kategoriyasi ham tilda o'z aksini topadi. O'zbek tilida mavjud tadqiqotlarda miqdoriy munosabatlarning ifodalanishi uch konstant – universal ma'nolar asosida shakllanadi.

II BOB. TIL SATHLARIDA KVANTITATIVLIKNING NAMOYON BO'LISHI

2.1 Morfemik sathda namoyon bo'lishi

O'zbek ilmiy tilshunosligi shakllangandan buyon so'z tarkibi masalasiga alohida e'tibor berib kelinadi. So'z tarkibi va unga bog'liq masalalarning shakllanishida tilshunos olim A.G'ulomovning xizmatlari alohida ahamiyatga ega. Olim o'zbek tilshunosligiga ilk bor morfema atamasini olib kirdi va morfemani so'zning eng kichik ma'noli qismi sifatida izohladi. A.G'ulomovning bir qator ilmiy qarashlaridan morfemalarni o'rganuvchi tilshunoslikning alohida bo'limi ajralib chiqishini sezgan deyishimiz mumkin. Shu bilan birga A.G'ulomov so'zning yasash tuzilishi bilan morfemik tuzilishini bir-biridan farqladi. Uning ta'kidlashicha, so'zning morfematik tahlilida uning morfemalari aniqlansa, so'z yasash tahlilida so'z yasalma sifatida doimo ikki qismga – yasovchi o'zak yoki negiz, yasovchi affiksga ajraladi. Olimning so'zning yasash va morfemik tarkibi haqidagi fikrlari “O'zbek tili morfem lug'ati”⁵⁵ ning kirish qismida izchil yoritib berilgan.

Haqiqatdan ham, deskriptiv lingvistikada til tizimiga sathli yondashuvning paydo bo'lishi, tilning ichki tuzilishini fonologik, morfologik, leksik, sintaktik sathlarga ajratilishi va har qaysi til sathining o'ziga xos birliklari mavjudligining e'tirof etilishi til tuzilishini o'rganuvchi alohida bo'limlarning ajralishiga olib keldi. Natijada XX asrning 70-yillaridan boshlab morfemika tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida ajratila boshlandi.

Tilshunos olim A.G'ulomov o'zbek tilida ot va fe'llarda ishlatiladigan ayrim qo'shimchalarni, ya'ni morfemalarni miqdor ma'nosini ifodalash uchun xizmat qilishini aytib o'tgan.⁵⁶

O'zbek tilshunosligida “morfema” tushunchasi va termini paydo bo'lgunga qadar o'zbek tili grammatikasiga oid ishlarda so'z tarkibi morfologik hodisa sifatida qaralib, uning o'zak va affiksdan tashkil topishi e'tirof etilgan, “so'z

⁵⁵ Фуломов А. Ўзбек тили морфем луғати. - Тошкент, 1977.

⁵⁶ Фуломов А. Ўзбек тилида кўплик категорияси. Тошкент, Ўздавнашр.1944.

tarkibi”sarlavhasi ostida o'zak, negiz va affikslarning xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Masalan, O.Usmon va B.Avizovlarning “Grammatika”sida yasama so’zning “asosiy ma’noli bo’linmas qismi” o’zak ekani qayd etilgan. So’zdan shakl yasovchilar olib tashlangan qismi esa “negiz” deb ta’riflangan.

Morfemani so’zning tarkibiy qismi sifatida tushunish, shunday birlik sifatida morfemani belgilash va har birining xususiyatlarini yoritish tamoyili o’zbek tilshunosligida hozirgi kungacha davom etyapti.

Yuqoridagi fikrlardan ko’rinib turibdiki, morfemika bo’limi alohida ajratilmagani, qo’shimchalar morfologiya bo’limi tarkibida o’rganilganligi uchun miqdor ma’nosining bunday ifodalanishini A.G’ulomov morfologik ifodalanish deb atadi. Shu bilan birga olim qo’shimchalar orqali ifodalangan ko’plik haqida alohida to’xtalgan. Masalan, ”gullar”dagi predmet sonining ortiqqligi, ”gulimiz”dagi qaratuvchi shaxs ortiqqligi, ”gullatdik”dagi bajaruvchi shaxs ortiqqligi anglashilib turishini aytadi. Xuddi shuningdek, ”gul”da predmet miqdorining kamligini, ”gulim”dagi qaratuvchi shaxsning kamligini, bittaligini, ”gullatdim”dagi ham bajaruvchi shaxsning kamligini olim ta’kidlagan ko’plikni hosil qiluvchi –lar, -imiz, -k qo’shimchalariga zid ravishda birlikni hosil qiladi, deyishimiz mumkin.

O’zbek tilida mavjud tadqiqotlarda miqdoriy munosabatlarning ifodalanishi uch konstant – universal ma’nolar asosida shakllanishini aytib o’tgan edik, ularni quyidagicha tavsiflash mumkin bo’ladi:

1. Aniq (obyektiv) miqdor ma’nosi, bunda miqdor son yoki birlik, ikkilik ma’nolarini bildiruvchi substantiv vositalar yordamida ifodalanadi: ikki, olti, (bir) kitob
2. Aniqlashtirilgan (subyektiv) miqdor ma’nosi, bunda kvantifikatorlar yordamga keladi: ko’plab, bir qancha, bir nechta,
3. Mavhum miqdor ma’nosi morfemalar yordamida ifodalanadi: o’zbek tilida –lar, ingliz tilida –s, rus tilida –ы

Demak, miqdor ma'nosini hosil qiluvchi morfemalarga fe'llardagi tuslovchi qo'shimchalarni, otlarda –lar ko'plik shaklini va egalik qo'shimchalarni kiritishimiz mumkin.

Albatta, tuslovchi morfemalarning qanday shaklda kelishi, qaysi shaxs, qaysi sonni ko'rsatishi egaga qarab belgilanadi. Bu hodisalar fe'lning sonidagi xususiyatlarni ochib ko'rsatadi. Demak, fe'llardagi son shaxs bilan bog'liq, shu bilan birga fe'llardagi shaxs, son ko'rsatuvchi shakllar uning ega bilan bo'lgan munosabatini ko'rsatishga xizmat qiladi. Tuslovchi qo'shimchalarning hammasini miqdor ifodalovchi morfemalarga kiritishimiz mumkin.

Shaxs (tilshunoslikda) – ish-harakatning so'zlovchi nuqtai nazaridan uning bajaruvchisiga aloqadorligini ifodalovchi, o'zaro qarama-qarshi shakllar tizimidan iborat grammatik kategoriya. Shaxs shakllari so'zlovchiga[1-sh], tinglovchiga[2-sh] suhbatda ishtirok etmovchi o'zga shaxsga[3-sh] qarashlilikini bildiradi. Harakat obyektining shaxsi ko'p tillarda, jumladan, turkiy tillarda asosan, fe'l orqali ifodalanadi. Masalan, o'zbek tilida:

Birlik: o'qidim, o'qiding, o'qidi

Ko'plik: o'qidik, o'qidingiz, o'qidilar

Shaxs kategoriyasi fe'lning boshqa kategoriyalari (mayl, zamon, nisbat kabilar) bilan paradigmatic va funksional munosabatlar orqali bog'lanadi. Ayniqsa, shaxs kategoriyasini son kategoriyasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun ularni birgalikda nomlab, shaxs-son kategoriyasi, ushbu ma'noni ifodalovchi ko'rsatkichlar esa shaxs-son morfemalari deb ataladi.

Shaxs tushunchasi muayyan leksemalar bilan kishilik olmoshlari tizimida, maxsus affiksalar morfemalar (egalik qo'shimchalari) yordamida ham ifodalanishi mumkin.

Harakatda subyekt ishtirokining kvantitativ ifodalanishi, ayniqsa, fe'llarda nisbat kategoriyasida yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbek tili misolida boshqa tillarga qaraganda nisbat kategoriyasining keng rivojlanganligi va uni yuzaga chiqaruvchi grammatik shakllarga boyligi fe'l tizimida kvantitativlikning namoyon bo'lishini

ko'rsatadi. O'zbek tilidagi fe'ning besh nisbati ish-harakat subyekti va obyektining kvantitativ belgi asosida zidlanishini belgilaydi:

1. Aniq nisbatda subyekt va obyekt miqdori teng bo'ladi: Nargiza uy ishlarini bajaryapti.
2. O'zlik nisbatida subyekt ham, obyekt ham yagona bo'ladi: Azimjon to'garakka yozildi.
3. Majhul nisbatda subyekt qatnashmaydi, obyekt ifodalanadi, bunda subyekt va obyekt kvantifikatsiyasi noteng bo'ladi. Ishlar bajarildi.
4. Birgalik nisbatida subyektlar ko'payadi, lekin miqdor noaniq, mavhum bo'ladi: Bolalar qorbo'ron o'ynashyapti.
5. Orttirma nisbatda subyektlar miqdori eng kamida bittaga ortadi: U bu ishni birovga qildirdi.

Tilshunos olim A. G'ulomov fe'llarda ko'plikni ifodalovchi shakllar haqida keng va atroflicha ma'lumot beradi.⁵⁷ Olimning bu izlanishida o'zbek tilidagi ko'plik kategoriyasi haqidagi qarashlari bayon qilinganligi uchun, tuslovchi qo'shimchalarning birlik shakli haqida munosabat bildirilmagan. Lekin o'sha ko'plikning ziddi sifatida biz tuslovchilar morfemalarning birlik shakllarini miqdor ifodalovchi birlik sifatida olishimiz mumkin.

Leksik, morfologik, sintaktik sathda miqdorning me'yordan ortiqqligini yoki kamligini ifodalovchi birliklar bo'lgani kabi morfemik sathda ham xuddi shunday morfemalarning bir-biriga zidlanishi, qiyoslanishi tabiiy.

Jamlovchi otning o'zak, negizi ko'plikni bildiradi, shuning ucnun bunday otga qo'shilgan –lar shu ko'plik (jamlik, yaxlitlik)ning birdan ortig'ini ifodalaydi. xalqlar, guruhlar, uyurlar.

Juft a'zo va narsani bildiruvchi otga –lar qo'shilganda ikkilik ma'nosi ta'kidlangan holda namoyon bo'ladi.

A.G'ulomov –lar qo'shimchasining sintaktik hodisami yoki morfologik hodisami ekanligi haqidagi fikrlarga e'tibor qaratib, uning so'z yasovchi emasligini, shuningdek, tilshunoslikda nazarda tutilgan turlovchilar qatorida ham

⁵⁷Гуломов А.Ўзбек тилида кўплик категорияси. Тошкент, Ўздавнашр.1944. 46-50 б.

bo'la olmasligini aniqlashga harakat qiladi. Olim –lar qo'shimchasini so'z yasovchilar qatoriga ham, so'z o'zgartiruvchilar qatoriga ham kiritmaydi. Qo'shimchalar tasnifi so'z yasovchilar so'z o'zgartiruvchilar sifatida qayd etilgan o'rinlarda, –lar affiksini so'z o'zgartiruvchilar qatorida keltirib, so'z o'zgartiruvchilarning o'zini sintaktik vazifa bajaruvchi shakllar va sintaktik vazifa bajarmaydigan shakllarga ajratadi. Bu holatda –lar affiksi sintaktik vazifa bajarmaydigan affikslar qatoriga kiritiladi. Affikslar tasnifi so'z yasovchilar, shakl yasovchilar, so'z o'zgartiruvchilar tarzida qayd qilingan keyingi grammatikada A.G'ulomovning o'zi –lar affiksini forma yasovchi affikslar qatoriga kiritadi. Har ikki holatda ham –lar affiksining maqomi to'g'ri belgilangan⁵⁸.

⁵⁸ Ўзбек тили грамматикаси. Тошкент, 1975.

2.2 Leksik sathda namoyon bo'lishi

O'zbek tili leksikologiyasi bo'yicha erishilgan yutuqlar sintezi sifatida "O'zbek tili leksikologiyasi" maydonga keldi. 70-80 yillardan o'zbek tilshunosligiga sistemaviy-struktur tilshunoslik qo'lga kiritgan yutuqlar, uning tadqiq etish metodlari kirib kela boshladi. O'zbek tilshunosligida ham uzviy tahlil metodlarini qo'llashga kirishildi. Bu, birinchi navbatda, leksikologiyada namoyon bo'ldi.

Natijada o'zbek tili leksikologiyasi tavsifiy bosqichdan yangi bosqichga – nazariy bosqichga leksikani ma'lum leksik-semantik guruhlardan, muayyan ma'no elementlarining munosabatidan tashkil topgan sistema sifatida o'rganish boqichiga ko'tarila boshladi. Bu bilan o'zbek tavsifiy leksikologiyasidan sistemaviy leksikologiya o'tila bordi.

Leksik sath birligi leksemdir. Leksema semema va nomemalarning o'zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik sanaladi. Leksemaning mazmuniy mundariyasi atash, ifoda va vazifaviy semalar munosabatidan iborat bo'ladi.⁵⁹ Har qanday leksemada bu semalardan atash semasi, albatta, ishtirok etadi. Shuning uchun bu sema leksemaning markaziy semasi hisoblanadi. Ifoda va vazifaviy semalar esa chegara semalar hisoblanadi. Masalan, barcha, hamma leksemalari bir xil atash semasiga ega bo'lib, ifoda semasi bilan bir-biridan farq qiladi.

- O'sha harorati g'arizaniki hammasi, - dedi qutidor. (A.Qodiriy)

Aytilganidek, leksemaning eng asosiy xususiyati uning "tayyor"ligi, ya'ni yasama emasligidir. Demak, leksema muayyan qolipning, muayyan qonuniyatning mahsuli, hosilasi bo'lmasligi zarur. Masalan, [kitob], [uy], [biz], [o'g'il], [kel], [ket], [qoch], [qol], [cho'zib], [ajoyib], [uch], [besh], [oz], [ko'p] kabi minglab tayyor birliklar voqelikdagi narsa, belgi, harakat, holat, miqdor xususiyatlarini atab, ifodalab keladi. Ular jamiyatning barcha a'zolari uchun tayyorligi bilan ajralib turadi. Bu birliklar nutqda grammatik qo'shimchalarni, umumlashma ma'noli turlicha affiksial morfemalarni o'zlariga ergashtirib, ularning nutqda ishtirok etishlariga asos bo'ladi. Masalan, *Bog'imizda anvoyi gullar ko'p* gapida

⁵⁹ Нурмонов А. Искандарова Ш. Умумий тилшунослик. Андижон – 2007.

[bog'], [anvoyi], [gul], [ko'p] leksemalarining ushbu ko'rinishlari yakka holda bo'lmay, balki ularning har biri o'zlarining qo'shnichilik munosabatlarining bir qismini voqelashtirgan holda kelgan. Ular o'zlari birika oladigan turlicha qo'shimchalardan, ba'zilar bilan birga gapda turli – tuman vazifalardan birini ado etgan.

Odam, o'zbek, kitob, qalam kabi so'zlar nutqda umumiylik, ko'plik ma'nosida qo'llanilishi mumkin bo'lsa ham, bu so'zlarning semantikasida jamlik ma'nosi anglashilmaydi. Chunki bunday so'zlarni yakka bir shaxsga yoki predmetga nisbatan ham qo'llash mumkin bo'ladi. Xalq so'zini yakka bir shaxsga nisbatan, pada so'zini yakka bir hayvonga nisbatan qo'llab bo'lmaydi, bu so'zlarning leksik ma'nosida umumiylik ma'nosi mavjud.

So'zning semantikasida miqdor ma'nosining mavjudligini aniqlashda so'zlarga berilgan izoh o'ziga xos mezon bo'lib xizmat qiladi. Agar so'zning semantikasida miqdor ma'nosi bo'lsa, so'z izohida, albatta, miqdor ma'nosini ifodalovchi biror leksik yoki grammatik vosita bo'ladi.

JAMIYAT [a] 1. Ma'lum doira kishilari, ahllari. *Biz, albatta, u jamiyatning kishilari emasmiz. Bizda bilim hayot bilan qo'shilishi kerak.*

2. Biror maqsadda tuzilgan ixtiyoriy birlashma, ijtimoiy tashkilot. *Bolalarni ijtimoiy muhofaza qilish jamiyati.*

ZIYOD [a] 1. Ortiq, ko'p, ko'proq. Haddan ziyod quvonch. Yuzdan ziyod kitob. Men seni o'z bolamdan ham ziyod qilib, yelkamda ko'tarib katta qilganman. Ayniqsa, she'riyatda bu so'zdan unumli foydalaniladi. Bir she'r tarkibida "ziyoda" so'zining har ikki leksik ma'nosi ham ifodalanganini kuzatishimiz mumkin:

Goh poyezd, gohi ot bilan,

Gohi kezdim piyoda

Men o'tgan yo'l meridian –

Chizig'idan ziyoda

Sen ham uni, u ham seni ko'rmagan,

Qayerdadir yashar lekin dunyoda.

Bog'lar kezib hech gulga yuz yuz burmagan,

U sen uchun har kimdan ham ziyoda. (E. Vohidov)

Ko'rinib turibdiki, birinchi baytda "ziyoda" leksemasi miqdor ifodalovchi birlik sifatida, ikkinchi baytda esa kishining xususiyatini ko'rsatuvchi birlik sifatida foydalanilgan.

INSONIYAT [a] 1. Insonlar, odamlar, inson nasli, bashariyat. *Insoniyat tarixi. Insoniyatning kelajagi.*

Demak, yuqorida ma'nosi izohlanayotgan birliklar kabi xalq, qo'shin, to'da kabi so'zlarning o'z leksik ma'nosi orqali miqdor ma'nosi ifodalangan. Bulardagi miqdor ma'nosi mazmunandir, ular miqdor ma'nosini, aniqrog'i ko'plikning grammatik ko'rsatkichiga ega emas. Leksik yo'l bilan miqdor ma'nosining narsa-buyumlarning, harakat yoki holatning miqdorini ajratib ko'rsatishni emas, balki umumiylik, jamlik g'oyalarini ifodalab keladi.

Tilshunos olim A.G'ulomov bunday yo'l bilan miqdor ma'nosini yuzaga chiqishini leksik ifodalanish deb ataydi va leksik sathda miqdor ma'nosini ifodalanishini juda qadimiy ekanini aytib o'tgan: "Tarixiy jihatdan olib qaraganimizda, jamlik anglatishda ikkinchi yo'lning (leksik ifodalanish) juda qadimiy ekani payqaladi. U o'z so'zlik holi bilan jamlikdir. Har bir turdosh ot yalpi ma'noda qo'llanib, belgilanmagan sonni anglataberadi. Bu to'la sonidir. Predmet sonini qo'shimcha orqali anglatish belgilangan noaniq ko'plikdir"⁶⁰.

Miqdor son, miqdor ravish, miqdor olmoshlarning mazmun-mundarijasida miqdor semasi bo'lgani uchun matn tarkibida biri o'rnida boshqasi almashib kelishi mumkin. Almashgan holatda turli mazmuniy o'zgarishlar ro'y beradi, lekin ularni transformatsiya qilish mumkin: Har qanday o'quvchi o'z vazifasini bajaradi. Hamma o'quvchi o'z vazifasini bajaradi. Ko'rinib turganidek har qanday va hamma miqdor ifodalovchi olmoshlari tarkibidagi umumiy sema ularni bir-birini o'rnida almashgan holda qo'llanishi uchun asos bo'lsa, xususiy semalari ma'lum mazmuniy o'zgarishlarni yuzaga chiqarmoqda.

Nazmiy yo'lda yozilgan asarlarda ham xuddi yuqoridagi kabi bir leksema o'rnida ikkinchi bir xuddi shu semantik ma'noga ega bo'lgan leksema qo'llana

⁶⁰ Фуломов А. Ўзбек тилида кўплик категорияси. Тошкент, Ўздавнашр. 1944.

oladi, bunda ham umumiy sema transformatsiya uchun asos bo'lsa, xususiy sema ma'lum mazmuniy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi.

*Vaqt kelar olamda g'olib haqiqat,
Bir o'lka yaratgay baxtiyor, **yakto** (E.Vohidov).
G'ayrat kamarini beliga bog'lab,
O'zidan kattaroq cho'pni ortmoqlab.
Manzilga tez yetmoq **yolg'iz** xayoli,
So'qmoq yo'ldan borar
Chumoli. (E.Vohidov).*

So'zlarning leksik-semantik guruhlari o'z ichiga ikki yoki undan ortiq so'zlarni ularning leksik ma'nolari bo'yicha birlashtiradi.⁶¹ Ma'noni o'zgartirganda miqdor ifodalovchi birliklar o'zaro nutqiy ma'nodoshlik hosil qiladi. Yuqoridagi misralarda qo'llangan leksik ma'nosida miqdorning me'yordan kam ekanligi ifodalangan yakto, yolg'iz leksemalari ham xususiy semalari bilan bir-biridan farq qiladi va bu semalar kontekstda aniq namoyon bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, miqdor ifodalovchi leksemalar xususiy semalariga ko'ra nutq vaziyatiga, uslubiga qarab tanlanadi. Ayniqsa bu holat badiiy adabiyotda yorqin namoyon bo'ladi.

Miqdorning me'yordan kamligini ifodalovchi, yakkalik ma'nosidagi bir leksik-semantik guruhga mansub bo'lgan miqdor ifodalovchi leksemalar ham o'zlarining bir xil atash semasiga ega bo'lib, ifoda semasi bilan bir-birlaridan farqlanadi.

*Oy fonusin ko'tardi osmon,
Yulduzchalar bo'ldi parvona.
Sayr etaylik, kel birga, janon,
Ko'nglim seni istar **yagona**. (E. Vohidov)*

Quyidagi baytda esa miqdorning me'yordan kamligini ifodalash uchun "tanho" leksemasidan foydalanilgan:

*Menga nasib etdi shunday mamlakat,
Mamlakatki olam mulkida **tanho**.*

⁶¹Нурмонов А. Искандарова Ш. Умумий тилшунослик. Андижон – 2007.

Miqdor ifodalovchi leksemalar orasida mazmuniy vazifaning o'ziga xos taqsimlanishi sababli so'zlovchining nutqiy maqsadu vazifasiga qarab ularning ikki yoki undan ortig'i birgalikda ham qo'llanilishi mumkin. Bunda mazkur miqdor ifodalovchi birlik o'zaro mazmuniy aloqa munosabatga kirishib, biri ikkinchisini ma'nosini aniqlashtiradi, ta'kidlaydi, kuchaytiradi yoki kuchsizlantiradi, ba'zan o'zgartirishi ham mumkin:

Milyon yilda meni yaratdi hayot,

Meni so'rab tog'lar qator cho'kdi tiz.

Nahot anglamaysan, bilmaysan, nahot,

Axir men bittaman, yagona, yolg'iz. (Iqbol Mirzo)

Bayt tarkibidagi bitta, yagona, yolg'iz miqdor ifodalovchi birliklarining bir zarb ostida ketma-ket ishlatilishi shoirning o'zi haqidagi haqiqatni yanada kuchaytirib, bo'rttirib berayotganini ko'rsatadi. Bu esa so'zlovchining konnatativ maqsadini ro'yobga chiqaradi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, har qanday maydon vositalaridan ikki yoki undan ortig'ini birgalikda qo'llanilishi bunday birliklarning o'rinli yoki noo'rin, to'g'ri yoki noto'g'ri qo'llanishiga ham e'tibor berishni talab etadi. Chunki aksariyat hollarda otning tub shakli faqat birlikni ifodalaydi, ega va kesim sonda moslashadi degan qoidalar ta'sirida miqdor ifodalovchi lug'aviy birlik qo'llanganda ham grammatik vosita qo'llanadigan, ayni bir gapda ega –lar shaklida qo'llansa, kesimga ham –lar yoki -(i)sh qo'shib qo'llanilayotgan holatlarni kuzatish mumkin. Bu esa tilshunos olim G'.Zikrillayevning uzvli va matniy tahlildan foydalanib, otning son kategoriyasi shakllariga tejamkorlik xosligi⁶² haqida bildirgan fikrlariga ziddir.

⁶² Зикриллаев Ғ.Н. Ўзбек тили грамматик қурилишининг бош хусусияти// Истиклол ва она тили таълими(тўплам).Тошкент, 2000, 56 – 64- бетлар.

2.3 Grammatik sathda kvantitativlik:

a) morfologik sathda kvantitativlik.

Soʻz tushunchasi tilshunoslik tarixida markaziy oʻrinni egallaydi. Shunga qaramasdan soʻzning maqomi masalasida turli xil qarashlar mavjud.

Tilshunoslikda soʻz eng noaniq tushunchalardan biri boʻlib, u turli tillarada turlicha boʻlgani uchun, ayrim tilshunoslar soʻz tushunchasidan umuman voz kechishni taklif qiladilar. Soʻz leksik morfema va koʻmakchi morfemaning sintagmatik munosabatidan tashkil topgan butunlikdir.⁶³

Turli xil qarashlardan kelib chiqib adabiyotlarda soʻzlarni turkumlarga ajratishning asosiy tamoyillari sifatida tushuncha ifodalash, shakliy yaxlitlik, fonetik bir butunlik belgilari koʻrsatiladi. Koʻrinib turibdiki, bu belgilar mustaqil soʻzlarni ajratishga yordam beradi.

Borliqdagi narsalar tabiiy sifat va mohiyat birligidir. Har qanday zot muayyan belgilarga ega boʻladi. Shu nuqtai nazardan, otlarni nimani nomini ifodalashiga koʻra quyidagi turlarga ajratish mumkin:⁶⁴

1. Narsa-hodisa otlari (substantsional otlar).
2. Belgi-xususiyat otlari (aktsident otlar). Belgi-xususiyat otlari qanday belgi ifodalashiga koʻra yana ikkiga ajratiladi.

1. Belgi otlari (sifat va ravish)

2. Miqdor otlari (son)

Oʻzbek tilida miqdor maʼnosining yuzaga chiqishini taʼminlovchi fonetik, leksik va grammatik vositalar talaygina. Ayniqsa, morfologik sathda soʻz turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, feʼl, ravish) yordamida miqdor maʼnosining ifodalanishi oʻziga xos xususiyatlarga ega. Aniq miqdor maʼnosi har bir soʻz turkumida mavjud. Masalan:

1. Otlarda: juft, egizak, ikkilik, koʻplik, toʻrtlik, dekada (oʻn kunlik)

2. Sifatlarda: yagona, yolgʻiz, qoʻsh

3. Sonlarda: bir, ikki, uch

⁶³ Нурмонов А. Искандарова Ш. Умумий тилшунослик. Андижон – 2007.

⁶⁴ Ўша асар.

4. Olmoshlarda: har bir, hamma, hech bir

Noaniq miqdor ma'nosining ifodalanishi ko'p, bir qancha, oz, kam, bir oz kabi subyektiv bahoni aniqlashtiruvchi kvantifikatorlar yordamida yoki so'zning semantik tuzilishi tarkibiga singib ketgan jamlik, umumiylik ma'nosini yuzaga chiqaruvchi aniqlashtiruvchi unsurlar yordamida amalga oshiriladi: oila, jamoa, to'da, poda, guruh, komanda

Tilda noaniq ko'plik ma'nosi ot, olmosh va fe'llardagi son grammatik kategoriyasi asosida yuzaga keladi. Ushbu kategoriyaning mohiyati "bir–birdan ko'p" oppozitsiyasida namoyon bo'ladi, bunda birinchi shakl yagonalik, yakkalik ma'nosini, ikkinchi shakl esa noaniq ko'plik ma'nosini ifodalaydi. Biroq shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, fe'lda son grammatik shakli harakat ishtirokchilarining sonini (grammatik subyekt) ko'rsatadi. Demak, fe'llardagi son grammatik shakli "vositachilik" xarakteriga ega bo'ladi va ot yoki olmosh orqali ifodalangan miqdor ma'nosini ikkilantiradi. Masalan: Sen kitob o'qiysan. Biz ko'cha bo'ylab yuguryapmiz. Xuddi shunday miqdor ma'nosining "qo'shaloqlanishi", "ikkilanishi" rus tilida ham, lekin ingliz tili materialida faqat III shaxs birlik shaklida kuzatiladi: He speaks English fluently – U inglizchada ravon gapiradi. O'zbek tilida ayrim hollarda ushbu holat o'ziga xos xarakterga ega holda ifodalanadi. Ya'ni miqdor ma'nosi fe'lda ikki marta ikkilanadi, batizmatik holda qo'llaniladi, buni "lingvistik unikaliya" sifatida baholash mumkin: Iltimos suyanmangiz. O'tiringiz kabi ifodalarda – (i) ng hamda – iz shakllari qo'shaloq holda ishlatilgan.

Fitrat so'z tukumlari, so'zlarning grammatik kategoriyalari haqida izchil ma'lumot beradi.⁶⁵ Xususan otlarning grammatik kategoriyalaridan faqat son (birlik va ko'plik) kategoriyasi haqida fikr yuritgan. Fitratning ilmiy izlanishlarida ot so'z turkumida miqdor ma'nosining ifodalanishi faqatgina –lar qo'shimchasi birlik sondagi otlarga qo'shilib ko'plik ifodalashi aytiladi

⁶⁵ Фитрат А. Ўзбек тили қоидалари тўғрисида бир тажриба.Сарф. Китоб 1. – Самарқанд – Тошкент: Ўздавнашр. 1930.

Ot so'z turkumiga mansub miqdor ifodalovchi birliklar mavjudot sonini turli ko'rinish va darajada ifodalash uchun xoslangan bo'lib, izchil qo'llanadi. O'zak va negiz, juft, takroriy otlar kiradi. Son-miqdorga munosabatiga ko'ra bunday miqdor ifodalovchi otlarni quyidagicha farqlash mumkin:

1. yakka ot
2. sanaladigan ot
3. sanalmaydigan ot
4. jamlovchi ot
5. atoqli ot
6. juft ot
7. takroriy ot

Otning lug'aviy mazmuniga ko'ra, miqdor ma'nosi to'rt xil ko'rinishda ifodalanadi. Birlik, ikkilik, ko'plik, umumiylik. Lekin bu shakllarning mazkur ma'nolarga munosabati bir xil emas. Bu otning lug'aviy mazmuni bilan bog'liq.

-Voy o'lay, Kumush opa, - dedi Zaynab bo'shashqan ohangda, - chindan ham ko'nglingizga olibsiz deyman. Ko'nglimda *tariqdek* yomonligim bo'lsa, ertagacha yetmayin. (A.Qodiriy) Bizga ma'lum tariq hajman kichik narsa, shu o'rinda ozgina ma'nosida qo'llanilyapti. Demak, ot turkumiga mansub birlikning miqdor ma'nosini ifodalab kelishi uning lug'aviy mazmuni bilan bog'liq holda yuzaga chiqyapti.

Jamlovchi otning son-miqdorga munosabati ikki tomonlama:

1. yakka narsaning ko'pligi (jamligi) o'zida belgilangan (o'quvchi – guruh)
2. shu jamlikning bitta, ikkita yoki ko'pligiga betaraf (bitta guruh, ikkita guruh, ko'p guruh). Takroriy otida ko'plik juft shaklda ikkilik va ko'plik, atoqli otida birlik belgilangan.

Sezgi a'zolari orqali bevosita idrok qilish mumkin bo'lmagan faqat "aql" ko'zi bilan "ko'rish" mumkin bo'lgan narsalarni tilshunoslikda abstrakt (mavhum) otlar deb yuritiladi. Aql, idrok, tuyg'u, sevgi, iztirob, fikr, ong, yaxshilik singari otlar abstraktlik xususiyati bilan boshqa otlardan ajralib turadi. Mavhum

tushunchalarni ifodalovchi ushbu so'zlar jamlik ma'nosiga ega bo'lishi tabiatan mumkin,⁶⁶ - deydi tilshunos olim Y.Zulfiyev.

Demak, biror so'zning jamlik otlari qatoriga kiritish uchun o'sha so'zning ma'nosida bir xil predmetlarning birdan ortiq bo'lishi uning bir nechasi bir butun, ya'ni to'lda tarzida o'qilishi, tasavvur etilishi talab etiladi.

Har bir turdosh ot yalpi ma'noda qo'llanilib, belgilanmagan sonni, ya'ni miqdorni anglatib beradi,⁶⁷ - deydi A.G'ulomov.

Juft narsalar nomi birlikda qo'llanadi. Etik, tufli, qo'l qop, zirak kabi so'zlar birlikda qo'llanishiga sabab bunday juft narsalarning aniq, doimiy, o'zgarmas miqdorga ega bo'lishidir. Bunday otlarga ko'plik shakli qo'shimchasi qo'shilganda ham, asosiy ma'no o'zgarmaydi.

Qoshlarning yosin Atoyi ko'rgali husn ichra toq. (Atoyi). Bunday ko'plik ma'noning, tasvirning kuchli bo'lishiga yordam beradi.

Demak, ot so'z turkumidagi so'zlar o'zining leksik ma'nosi bilan ham, grammatik vositalar yordamida ham miqdor ma'nosini ifodalashi mumkin. Shu bilan birga sintaktik munosabatlarda ham faol ishtirok etadi

Son so'z turkumi sof va aniq miqdorni ifodalash uchun xoslangan lug'aviy vosita ekanini hisobga olib, son-miqdor mikromaydononining markazidan joy oladi⁶⁸, - deydi tadqiqotchi F. Safarov.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida tuzilish jihatdan sonning tub, yasama, qo'shma, aralash va takroriy shakllari mavjud. Sonlar narsalar, belgi-xususiyatlar, harakat-holatlarining miqdori yoki tartibini bildiradi. Shunga ko'ra sonlar ikki guruhga ajratiladi:

1. Miqdor sonlar
2. Tartib sonlar

O'z navbatida miqdor sonlar qanday miqdorni ifodalashiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Sanoq sonlar: bir, ikki, uch

⁶⁶ Зулфиев Я. Жамлик категориясининг ўзига хос хусусиятлари// Ўзбек тили ва адабиёти, 1975, 4-сон

⁶⁷ Гуломов А. Ўзбек тилида кўплик категорияси. Тошкент, Ўздавнашр. 1944.

⁶⁸ Сафаров Ф. Ўзбек тилида сон-миқдор микромайдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти. Филол. фан. ном. дисс. Самарқанд - 2004

2. Kasr sonlar: o'ndan bir, uchdan ikki, yarim, chorak
3. Taqsim sonlar: bittadan, ikkitadan, uchtdan
4. Jamlovchi sonlar: ikkala, uchala, beshala
5. Chama sonlar: uchta, o'nlab
6. Dona sonlar: bitta, ikkita, nafar, tup

Bulardan tashqari, sanoq son bilan sanaladigan narsalarni ifodalovchi so'z o'rtasida qo'llanilib, bu narsaning o'lchovini bildirgan so'zlar hisob so'zlar deyiladi. Xuddi shu o'lchov bildiruvchi so'zlar bilan birga qo'llaniluvchi sonlarni Fitrat bir butun holda o'lchov sonlari deb hisoblagan: ikki qadoq uzum, bir yutum suv kabi birikmalarda qadoq, yutum so'zlarini "o'lchov otlari" deb hisoblaydi⁶⁹.

Umri xola bir qo'li bilan uniqqan chit ko'ylagning etagini mahkam changallab olgan, etak ichida ikki hovuch pishgan-pishmagan aralash qulupnaylar ko'rinib turar edi. (O'.Hoshimov) Keltirilgan misolda hovuch hisob so'zi ikki soni bilan birga qo'llanilib miqdor ma'nosini yuzaga chiqaryapti.

Son so'z turkumi nutqda, birikmada, matnda ot bilan birga qo'llanadi. Son so'z turkumi ot va fe'lning son kategoriyasi, egalik kategoriyasi shakllari, olmosh ifodalagan miqdor ma'nosini aniqlashtirib ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

O'zbek tili faktlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, son turkumi doirasida so'z yasaliishi yo'q va yuqorida ko'rsatilgan son turlarini hosil qiluvchi qo'shimchalar so'z yasovchilar emas. Masalan: uch + tacha – uchta yasaliishida motivlovchi baza (uch) bilan yasalma (uchta) alohidadan denotat va signifikatga ega emas. Uchta shaklidagi yasaliishda ham son sifatga yaqin semantik-grammatik xususiyat kasb etadi, chama, noaniqlik miqdor nuqtai nazaridan belgi ifodalanadi. Demak, sonning boshqa turlarini yasaliishda ham mohiyatan ana shunday hodisa namoyon bo'ladi. Bizga ma'lumki, sonning ma'no turlarini yasovchi qo'shimchalar deb qaralgan qo'shimchalar semantik jihatdan yangi so'z yasamaydi, balki ana shu miqdorga qo'shimcha ma'no yuklaydi. Shu nuqtai nazardan qaralganda sonlarning "semantik turlari" deb atalayotgan sonlar fe'l

⁶⁹ Нурмонов А. Танланган асарлар. II жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012.

doirasidagi (sifatdosh, ravishdosh kabi) va ot turkumi doirasidagi (chegara forma, qarashlilik formasi kabi) funksional formalardan mutlaqo farq qilmaydi.⁷⁰

Demak, kvantitativ ma'no sonning o'zagidan anglashiladi. Sonning ma'noviy turlarini yasovchi qo'shimchalar esa o'zakdan anglashilgan kvantitativ ma'noga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Bular miqdorni sanab, taqsimlab, tartiblab, jamlab, chamalab ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Sifat turkumida miqdor ma'nosi o'zak, negiz, juft va takroriy so'z kabi lug'aviy vositalar orqali ifodalanadi. Yakka, yolg'iz, tanho, so'qqabosh, qo'sh, qo'shaloq, egizak, adadsiz, sanoqsiz, behisob, katta-kichik, yaxshi-yomon, turli-tuman, elas-elas kabi.

Usta kuldi:

Otabekning tanho o'zi!

Uch kishiga tanho o'zi?

- Azamatning yolg'iz o'zi! – deb usta Alim ilgarigi so'zini qaytaladi. (A.Qodiriy) Misolda miqdorning me'yordan kamligini ifodalashda olmoshning o'zidan ham foydalanish mumkin edi. Lekin tanho, yolg'iz sifatlarning qo'llanilishi bilan miqdorning kamligi kuchaytirib ifoda etilyapti.

Qutidor bu savoldan boshqa gap tushundi:

-Yo'q, qizim, sen o'zing yolg'iz yotar eding. (A.Qodiriy). Keltirilgan misolda ham sifat turkumidagi yolg'iz so'zi miqdor ma'nosining me'yordan kamligini ifodalash uchun xizmat qilyapti, lekin birinchi misoldagidek ma'noni kuchaytirish, bo'rttirish ifodalari sezilmaydi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, I.G.Koshevaya o'zining “Tilshunoslik muammolari va ingliz tili nazariyasi”⁷¹ asarida fe'llarda birlik va ko'plik sonning farqi jarayonning tub mohiyatiga tegishli ekanligini, ular orasidagi tafovutni birlik sondagi aniqlik va ko'plik sondagi mavhumlik bilan belgilash mumkin ekanligini aytib o'tgan.

⁷⁰ Нурмонов А. Искандарова Ш. Умумий тилшунослик. Андижон – 2007.

⁷¹ Кошечая И.Г. Проблемы языкознания и теории английского языка. М: Просвещение, 1976.

Garchi fe'llardagi son grammatik kategoriyasi vositachilik xarakteriga ega bo'lsa ham, harakat bajaruvchilarining sonidan tashqari fe'lining o'zi ham miqdor ma'nosining yuzaga chiqishini ta'minlovchi leksik va grammatik xususiyatlarga ega. Jumladan, harakatning makon-zamon sig'imidagi cheklanganlik va cheklamaganlik asosidagi zidlanishida miqdor ma'nosi sezilib turadi: olib kelmoq – keltirmoq, qochmoq – yugurmoq, kelmoq – ketmoq.

Fe'l so'z turkumidagi ayrim negiz va qo'shma so'z birlikni, bir qancha o'zak va negiz ko'plikni ifodalab keladi. Yakkalamoq, yolg'izlanmoq, yolg'iz qolmoq kabi fe'llarda birlikni ifodalasa, yig'ilmoq, tizmoq, qalamoq, uymoq, to'plamoq, jamlamoq, birlashmoq, saflamoq, tomchilamoq, ko'paymoq, kamaymoq, ozaymoq, uyushmoq kabi fe'llar ko'plikni bildiradi.

Son jihatdan qarama-qarshilik tabiatda ham, tilda ham bir-ko'p chizig'ida emas, nol-noldan ko'p chizig'ida boradi, - deydi M.Mamajonova va miqdoriy me'yorni quyidagi tartibda ko'rsatadi⁷²: quyi me'yor – me'yor – yuqori me'yor (tommoq – oqmoq – sharillamoq).

O'zbek tilidagi fe'llarda miqdor ma'nosi leksik usul yordamida ham ifodalanishi mumkin, lekin ot va sifatlardan farqli ravishda fe'llar aniq va ko'plik ma'nosini anglatish xususiyatiga ega emas. A.G'ulomov fe'llardagi ko'plik holati ot yoki olmoshning soniga qarab moslanishini, shu jihatdan fe'llar o'zbek tilida ko'plik kategoriyasini ifodalashda asosiy obyekt bo'la olmasligini aytgan.⁷³

Tadqiqotchi M.Mamajonova esa “Kvantitativlik (miqdor kategoriyasi) va uning fe'llarda ifodalanishi”⁷⁴ nomli maqolasida aynan fe'llarda miqdor ma'nosining yuzaga chiqishi haqidagi o'z qarashlarini bayon qiladi. Juftlashtirmoq, ikkilantirmoq kabi ayrim yasama fe'llarda o'zakdagi aniq miqdor semasi butun fe'lga taalluqli bo'lib qoladi. Bu esa, albatta, istisnoli holat. Leksik yo'l bilan miqdor ma'nosining ifodalanishi son kategoriyasiga qaraganda aniqroq va ravshanroq yuzaga chiqadi. Bu holatda fe'l miqdorning o'zini nomlamaydi, balki

⁷² Мамажонова М.Квантитативликнинг тил birlikларини таҳлил қилишдаги аҳамияти//Молодой учёный. 2016, 3-сон

⁷³ Гуломов А. Ўзбек тилида кўплик категорияси. Тошкент, Ўздавнашр.1944.

⁷⁴ Мамажонова М. Квантитативлик (миқдор категорияси) ва унинг феълларда ифодаланиши//Тил ва адабиёт таълими. 2009,5-сон

kattalashish va kichrayish shkalasi asosida miqdoriy munosabatlarning dinamikasini o'ziga xos tarzda aks ettiradi. Shu belgiga asosan fe'llarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Miqdorning o'sib borishini ko'rsatuvchi fe'llar: qo'shmoq, ko'paytirmoq, oshirmoq, kuchaytirmoq, ko'tarmoq, ko'tarilmoq, intilmoq, yugurmoq, sakramoq, yiriklashtirmoq, kehgaytirmoq kabi

2. Miqdorning kamayib borishini ko'rsatuvchi fe'llar: ayirmoq, kamaytirmoq, pasaymoq, susaymoq, kesmoq, tushmoq, ozaymoq kabi

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, ularda miqdor ma'nosi gradual zidlanish asosida ifodalanmoqda: bir me'yorda ko'tarilash tushish (kuchaymoq – susaymoq, rivojlanmoq – tanazzulga yuz tutmoq) yoki bir tomondan ikkinchi tomonga keskin o'zgarish (sakramoq – tushmoq, ko'tarilmoq – tushmoq). Fe'llardagi bunday xususiyat miqdoriy munosabatlar dinamikasini fikrlash, til birliklarining kvantitativ belgi asosida zidlanishini mohiyatan tushunishda alohida ahamiyat kasb etadi. Demak, miqdor kategoriyasining tilda ifodalanishi leksik va grammatik vositalar yordamida yuzaga chiqadigan aniq va noaniq kvantifikatsiyani o'z ichiga oladi. O'zbek tilida aniq miqdor leksik vositalar yordamida, noaniq miqdor esa ham leksik ham grammatik usul yordamida ifodalanadi.

Ravish turkumiga mansub bo'lgan ayrim birliklar ham miqdor semasiga ega.

1. O'zak: sal, picha, xiyol, oz, ko'p, kam, ancha, talay

2. Negiz: qoplab, paqirlab

3. Qo'shma ravish: bir qancha, bir nechta, bir muncha

4. Takroriy ravish: guras-guras, oz-oz

Bo'ying sal cho'zilsa, bironta duradgor usta topilsa, shogirdlikka topshirardim. (Y.Sulaymon)

Demak, o'zbek tilida miqdorning me'yordan ortiqqligini ifodalash uchun sifatlarni, otlarni, olmoshlarni, ravishlarni takrorlash orqali ham ifodalash mumkin. Bularning har biri o'ziga xos ko'plik ifodalashi bilan farq qiladi.

So'qmoqlarda tuproq kechdim,

Bosdim tog'lar toshini.

Qancha-qancha yo'llar kezdin,
Topgunimcha to seni. (E.Vohidov).
Hali seni yo'nib, tarashlab,
Yuz martalab o'chirmog'im bor.
Qayta-qayta g'ijimlab tashlab,
Takror-takror ko'chirmog'im bor. (E.Vohidov)

b) sintaktik sathda kvantitativlik

Sintaksisning asosiy birligi gapdir. Gap fikrni shakllantirish, ifodalash va bayon qilishning asosiy vositasi, muayyan tilning qonun-qoidalari asosida shakllangan sintaktik birligidir. Gapning asosiy funksional belgisi kommunikativlik, ya'ni fikr ifodalash vositasi ekan, demak, tilning bu vazifasini yuzaga chiqaruvchi asosiy gap hisoblanadi. So'z ham, so'z birikmasi ham bu vazifani bajara olmaydi. Ularning vazifasi narsa va hodisalar, belgi harakatlarni nomlash, ya'ni nominativ vazifadir. Abdurauf Fitrat o'tgan asrning boshlaridayoq gapda muayyan elementlarning o'zaro bog'lanishi to'g'risida, gap haqida asosli fikrlarni bayon qilgan: "O'zingizni o'ylasangiz, hayvonlardan birini o'ylasangiz, (otni), bizga u hayvon ustiga yerlashmoq uchun bo'lg'on tebranishingizni o'ylasangiz, uch ma'noni o'ylagan bo'lursiz. Bu uch ma'noni birlashtirib, bir-biriga bog'lab o'zingizni otga minganingizni o'ylaganda miyangizda bir "o'y" tuqqandir. Shu o'yni bir kishiga bildirmoqchi bo'lg'och, "Men ot mindim" deb qo'yasizkim, bu aytqaningiz bir "gap"dir"⁷⁵.

Sintaktik sathning eng kichik birligi bo'lgan so'z birikmasidan tortib sodda va qo'shma gaplarda, supersintaktik butunlikda miqdor ifodalovchi birliklarni faol qo'llanilishini ko'rishimiz mumkin.

Tilshunos olim A.G'ulomov to'da-to'da bola, o'nta bola misollarini keltirib o'nta, to'da-to'da so'zlarining keyingi so'z bilan munosabatga kirishishi orqali miqdor ma'nosi ifodalanishini sintaksistik ifodalanish⁷⁶, deb ataydi. Miqdor ifodalovchi so'zlarning ot bilan aniqlovchilik aloqasiga kirishuvi, yoki boshqa turli so'zlarning takrorlanib qo'llanilishidan hosil bo'lgan birikmalarda ham miqdor ma'nosi ifodalanadi.

Ayrim so'z, so'z birikmalari orqali ko'plik ma'nosi anglashilb turiladi: biz, ko'p odam, shoda-shoda marvarid kabi.

Demak, so'z birikmalari tarkibida ham ko'plik ma'nosi ifodalanadi. Bu ma'no ikki xil yo'l bilan ifodalanishi mumkin:

⁷⁵ Фитрат А. Ўзбек тили қоидалари тўғрисида бир тажриба.Сарф. Китоб 1. – Самарқанд – Тошкент: Ўздавнашр. 1930.

⁷⁶ Ғуломов А. Ўзбек тилида кўплик категорияси. Тошкент, Ўздавнашр.1944.

1. Ikkita bir xil ot ko'makchi yordamida bog'lanadi: xabar ketidan xabar, tashvish ustiga tashvish, maktub ortidan maktub .
2. Ayrim sanaladigan otlar bilan olam, dunyo kabi so'zlar birikib ko'plik ma'nosini ifodalaydi: hayvonot olami, o'simlik dunyosi kabi.

So'z birikmalari tarkibidagi aniqlovchi aniq miqdorni bildirganda aniqlanmish ot doim birlikda qo'llanadi. Bunday holatda ko'plik to'la, aniq anglashilgan bo'lib, shunga ko'ra "lar" ko'plik shaklining qo'llanilishiga o'rin yo'q. Morfemik sathda miqdor ifodalovchi birliklarning qo'llanilishida ko'rib o'tganimizdek, -lar aniq miqdorni ifodalamaydi va ma'lum sonni bildirib kelmaydi.

Ega yoki predikativlik qo'shimchasi orqali ma'nosi toqlangan ot-kesimlar birlikda qo'llanadi.

Kesim "yo'q" yoki shu ma'nodagi biror so'z bilan ifodalansa, eganing inkor bildiruvchi aniqlovchisi bo'lib, ma'no umumlashgan bo'lsa, ega vazifasidagi shu ot, odatda birlikda qo'llanadi: *Qo'ldan kelmaydigan ishi yo'q.*

Biror narsaning nimadan tayyorlanganini bildiruvchi otlar har qanday vazifada kelganda ham birlikda qo'llanadi: *Ko'rgazmadagi milliy liboslar adrasdan tikilgan.*

Son turkumiga mansub so'zlarning o'zida miqdor ma'nosi mavjudligi uchun ular birlikda qo'llanadi: *Hasanalini bolaliq vaqtida Erondan kishi o'g'irlab kelguchi bir turkman qo'ldan Otabekning bobosi o'n besh oltin barobariga sotib olg'on edi.* (A.Qodiriy).

Sintaktik sathda ko'plikning ifodalanishi turlicha va ular quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Ot oldidan miqdor ma'nosini bildiruvchi so'z keltirish orqali miqdorning me'yordan ortiqqligi ko'rsatiladi:
2. Miqdor bildiruvchi so'zlar bilan ifodalangan yakka aniqlovchi yoki kesim orqali ifodalanadi:
3. "ust-bosh", "katta-kichik", "qozon-tovoq" kabi so'zlarni keltirib jamlash yo'li orqali ifodalanadi:

4. Umumlashtiruvchi belgi orqali ifodalanadi:
 5. Aniqlangan belgisiga ko'ra miqdorning me'yordan ortiqqligiga ishora qiluvchi so'zlar orqali ifodalanadi: turli ishlar, har-xil vazifalar
 6. Qaralmishning ko'pligi ma'lum o'rinlarda qaratqich orqali ifodalanadi: qizlarning ko'ngli
 7. Kesimning ko'pligi ega orqali ifodalanadi: Bu bolalar – student
 8. So'zni takrorlash orqali ham miqdorning me'yordan ortiqqligi ifodalanadi va bunday usul quyidagicha farqlanadi:
 - a) ma'lum miqdor, holat yoki o'lchov belgisini takrorlash orqali: qop-qop un, to'da-to'da odam
 - b) sifat takrori orqali: oppoq-oppoq paxtalar, yaxshi-yaxshi kitoblar
- Iboralarda ham miqdor ma'nosi ifodalanishi mumkin: barmoq bilan sanarli, jo'jabirday jon iboralari miqdorning me'yordan kamligini ifodalasa, bir yoqadan bosh chiqarib, keti uzilmaydi iboralari miqdorning me'yordan ortiq ekanligini ifodalaydi.

Turli ko'rinishdagi supersintaktik butunliklar tarkibidagi boshlanma – gaplarni tadqiq etgan tilshunos olimlar bunday gaplarning kesimlar orqali reallashgan hukm supersintaktik butunlikning tuzilishi, semantikasi va uslubiy funktsiyasiga kuchli ta'sir etishini e'tirof etadilar. Bu holat boshlanma – gapning supersintaktik butunlikdagi roli va funktsiyasini yanada oshiradi.

Boshlanmalarning funksional-semantik (uslubiy-mazmuniiy) xususiyatlaridan kelib chiqib tasnif qilinganda miqdor uzvli boshlanmalar alohida ajratiladi⁷⁷.

Boshlanmalarning bunday tipida kesim (boshlanma kesimi) miqdor ma'nosini ifodalaydi. Unda predmet yoki shaxsning ham belgisi ham shu belgining miqdori o'z aksini topadi. Superintaktik butunlikning boshlanmadan keyingi qismlarida esa miqdorning mohiyati, xususiyatlari izohlab, sharhlab, aniqlab beriladi:

⁷⁷ Мамажонов А. Абдупаттоев М. Матн назарияси. Фарғона. 2016.

Qizbolaning jamiyki boyligi bitta: bu uning nomusi, bu boylik har qanday merosdan qimmatlidir.

Ilmli kishilarning umri ikkita. Biri uning inson sifatida kechirgan umri. Ikkinchisi esa ilm-fanga bag'ishlangan umrdir. Ana shu ikkinchi umr mangulikka daxldordir.

Yuqoridagi jumalardan ko'rinib turganidek, boshlanma vazifasidagi gapning kesimi anglatgan miqdor supersintaktik butunlikning shakllanishiga kuchli ta'sir o'tkazadi. Miqdor darajasi qancha katta bo'lsa supersintaktik butunlikning tuzilishi shunchalik kengaya boradi. Buni yuqorida keltirilgan misollarni qiyoslash orqali bilib olish mumkin. Keltirilgan birinchi supersintaktik butunlik boshlanmasida "bitta", ikkinchi supersintaktik butunlik boshlanmasidan anglashilgan miqdor darajasi "ikkita", ya'ni birinchi supersintaktik butunlikdagidan ortiq. Endi ularning tuzilishini tekshiradigan bo'lsak, birinchi supersintaktik butunlik ikkita gapdan: bitta sodda va bitta bog'lovchisiz qo'shma gapdan tashkil topgan. Ikkinchi supersintaktik butunlik esa to'rtta gapdan: hammasi sodda gapdan iborat. Bu holatni shu bilan izohlash mumkinki, muallif o'z nutqining boshida, ya'ni boshlanmada keltirilgan miqdorni imkon qadar tushuntirishga, izohlashga harakat qiladi. Miqdor qanchalik yuqori bo'lsa, ularning har birga xos xususiyatlarni sanab o'tish talab etiladi. Natijada supersintaktik butunlik tuzilishi kengayib, murakkablashib boradi.

II BOB BO'YICHA QISQA XULOSA:

1. Kvantitativ belgi til sathlari o'rtasida eng keng tarqalgan tasniflovchi belgilardan hisoblanadi. Kvantitativ belgini muayyan sath birliklarini ajratishda yoxud o'zaro qiyoslanuvchi sathlarning birliklari orasidagi o'xshashlik hamda farqlarni belgilashda muhim kriteriya sifatida qo'llash mumkin.

2. Kvantitativ belgi til vositalaridan keng foydalanilgan holda, ayrim tovushdan tortib butun bir matnlar orqali ham ifoda qilinishi kuzatiladi. Ba'zan miqdoriy belgi til vositalari tahlilida ifoda plani orqali umuman sezilmasdan, faqatgina mazmun planini chuqur tahlil etilganda namoyon bo'lishi ushbu kategoriyaning murakkab va nozik qirralaridan biri sanaladi.

3. O'zbek tilida kvantitativlik ma'nosi barcha sath birliklari orqali ifodalanish imkoniyatiga ega. U til strukturasining deyarli barcha asosiy sathlariga daxldor: fonetika, leksika, morfemika, morfologiya, sintaksis.

4. Miqdor ma'nosini hosil qiluvchi morfemalarga fe'llardagi tuslovchi va nisbat qo'shimchalarini, otlarda –lar ko'plik shaklini va egalik qo'shimchalarni kiritishimiz mumkin. Albatta, tuslovchi morfemalarning qanday shaklda kelishi, qaysi shaxs, qaysi sonni ko'rsatishi egaga qarab belgilanadi. Bu hodisalar fe'lning sonidagi xususiyatlarni ochib ko'rsatadi.

5. So'zning semantikasida miqdor ma'nosining mavjudligini aniqlashda so'zlarga berilgan izoh o'ziga xos mezon bo'lib xizmat qiladi. Agar so'zning semantikasida miqdor ma'nosi bo'lsa, so'z izohida, albatta, miqdor ma'nosini ifodalovchi biror leksik yoki grammatik vosita bo'ladi.

6. Morfologik sathda so'z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish) yordamida miqdor ma'nosining ifodalanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Aniq miqdor ma'nosi har bir so'z turkumida mavjud.

7. Sintaktik sathning eng kichik birligi bo'lgan so'z birikmasidan tortib sodda va qo'shma gaplarda, supersintaktik butunlikda miqdor ifodalovchi birliklarni faol qo'llanilishini ko'rishimiz mumkin.

III BOB. KVANTITATIVLIKNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

3.1 Kvantitativlikning topishmoqlarda izohlanishi

Ma'lumki, hech bir tilni "til egasi"dan ajratgan holda to'g'ri va to'liq o'rganish mumkin emas. Zero, har bir nutq aktida so'zlovchi shaxsning izi sezilib turadi. Nutqiy jarayonda kommunikantlarning til haqidagi bilimlari ularning birlarini to'g'ri va aniq tushunishlari uchun yordam beradi. Buyuk nemis olimi V.Gumboldtning "tushunishlik va tushunmaslik" antinomiyasi ham ayni shu jarayonni ifodalash uchun qo'llanilgan edi. So'zlashuvchilarning til bilimi deganda, nafaqat ularning til kodlaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasi, balki til kodlarini borliq bilan bog'lash ko'nikmasi ham tushuniladi. Ikkinchi ko'nikma so'nggi davrlarda "olamning lingvistik manzarasi" (OLM) deb nomlanayotgan tushuncha bilan uzviy bog'liqdir.

OLM gnoseologiyaning tarkibiy bir qismi sanalib, inson miyasida olam uzvlarining aks etishini namoyon qiladi. Boshqacha aytganda, olam uzvlari inson ongida o'zaro shartlangan va bog'liq ravishda aks etadi va bu aks etgan uzvlar muayyan bir tilning kodlari orqali ifodalanadi.

Jahon tilshunosligida antropotsentrik paradigmaning shakllanishi belgidan foydalanuvchilar, ya'ni so'zlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan chambarchas bog'lanadi. "Nutq yaratilishi jarayoni talqinida til va tafakkurning aynan yoki alohida hodisalar ekanligi bahsli masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Eng so'nggi qarashlarga ko'ra, til va tafakkur o'zaro ajralmas va chambarchas bog'liq hodisalardir. Lekin ularning ikkovi bir xil narsa emas. Til tafakkurning ifoda shakli va yashash formasi sifatida inson ongining shakllanishida ham muhim o'rin tutadi",⁷⁸.

Har qanday nominativ birlik borliqdagi narsa-hodisalar, harakat-holatlarni nomlaydi. Bu narsa va hodisalar, harakat va holatlarning umumlashgan obrazlari ongimizda aks etadi. Ana shu ongda aks etgan obraz u yoki bu tilning akustik signallari orqali ifodalanadi. Mazkur uch bosqich umumiy nominatsiya

⁷⁸ Худойберганава Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. Тошкент: 2013.

jarayonining zaruriy komponentlari sanaladi. Nominatsiya jarayonidagi dastlabki ikki komponent, ya'ni denotat va signifikat (konsept) barcha tillarning nominatsiya jarayoni uchun umumiy bo'lib, uchinchi bosqichda tillar o'rtasida farqlanish ro'y beradi.

Ikkinchi bosqich olamning inson ongida konseptualizatsiyasida namoyon bo'ladi. Borliqdagi narsalarning xususiy belgilari chetlashtirilgan holda, umumiy belgilarini konseptuallashtirishda xizmat qilish barcha tillar uchun umumiy bo'lsa ham, lekin konseptuallashtirilayotgan narsaning qaysi belgilari umumlashtirishga asos bo'lishi bilan tillar o'rtasida farqlanish bo'lishi mumkin. Aksar narsa va hodisalarning nomlanishida xalqning olamni o'ziga xos tarzda tasavvur qilishi, ko'rishi, xalqning obraz yaratishdagi o'ziga xosligi namoyon bo'ladi.

Jumladan, muayyan millatning madaniyati, urf-odatlar, diniy e'tiqodlari shu xalqning tilida u yoki bu shaklda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, bu jarayon paremiologik birliklar orqali yaqqol ko'zga tashlanadi. Xalq maqollari, iboralar, topishmoqlar, aforizmlar shu xalqning ifodalovchisi sifatida muhim ahamiyatga ega. Xususan, topishmoqlar matnida ham xalq urf-odatlar, madaniyatining ma'lum qirralari ifodalanishi mumkin.

O'zbek topishmoqlarining o'ziga xos tomonlari qator filolog-olimlarning tadqiqotlarida o'rganilgan⁷⁹. Topishmoqlar o'zida yashiringan va topilishi lozim bo'lgan leksemalarning differensial belgilariga asoslanadi. "Topishmoqlarda fikrlar faoliyati natijasida noma'lum voqelikning ma'lum voqelikka aylanishi uchun ifodada yashirin semantik komponent ishtirok etadi"⁸⁰.

Xalq topishmoqlarini mukammal o'rgangan Zubayda Husainova 1981 yilda G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti tomonidan e'lon qilingan "Topishmoqlar" kitobidagi matnlarni tartiblashtirishda ularni yirik ikki guruhga ajratadi:

1. An'anaviy topishmoqlar
2. Yangi topishmoqlar

⁷⁹ Хусаинова З. Ўзбек топишмоқлари. Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.

⁸⁰ Қобулова У.С. Метафорик матнда интеграл ва дифференциал семалар муносабати (ўзбек халқ топишмоқлари мисолида): Филол. фанл. докт. дисс. автореф. Тошкент, 2007.

Birinchi guruhda osmon, yer, suv, tabiat hodisalari, yil fasli va mavsum, odam va uning a'zolari, xislatlari - jami 21 mavzu jamlangan. Yangi topishmoqlarda esa elektrotexnika, radiotexnika, maktab va o'quv qurollari – jami 9 mavzu jamlangan. Bundan ko'rinib turibdiki, topishmoqlarda aks etmagan mavzuning o'zi yo'q. Eng ahamiyatlisi, har ikkala guruhdagi mavzularning deyarli hammasida miqdor ifodalovchi birliklar faol ishtirok etadi.

Topishmoqlar matnida son-miqdor ifodalovchi lug'aviy birliklar juda katta ahamiyatga ega⁸¹. Chunki inson a'zolari, atrof-muhit bilan bog'liq narsa-predmetlarning eng muhim differensial belgilari son turkumiga doir so'zlar orqali ko'rinadi.

*Qora uyda **ming** chiroq,*

*Uyni yoritmas (**Osmon, yulduzlar**).*

Bu topishmoqda **qora** so'zi osmonni, **yoritmas** so'zi qorong'ilikni ifoda etgan bo'lsa-da, jumboqning javobi kvantitativlik ifodalovchi **ming** so'zi orqali ifodalangan miqdorga tegishli. Demak, differensial belgi son-miqdor anglatuvchi leksemalar bilan ko'rinmoqda.

Tish, qo'l barmoqlari, ko'zning miqdoriga ishora qilgan quyidagi topishmoqqa qarang:

***O'ttiz** bo'ri bir joyga makon qo'ydi,*

***O'nta** xizmatkor, **ikkita** qorovul qo'ydi.*

*(**Tish, barmoqlar, ko'z**).*

O'ttiz bo'ri - tish, **o'nta** xizmatkor – qo'l barmoqlari, **ikkita** qorovul – ko'zlar.

Vaqt ma'nosini bildiruvchi topishmoqlarda miqdor ifoda etuvchi so'zlarning o'rni yanada aniq ko'zga tashlanadi:

***Bir** palakda **o'n ikki** xamak (**Yil, o'n ikki oy**).*

Bir-biriga bog'langan yil va oyga tegishli bir yilda o'n ikki oyning mavjudligi miqdor anglatuvchi so'zlar bilan yoritilmoqda.

⁸¹ Қобулова У.С. Метафорик матнда интеграл ва дифференциал семалар муносабати (ўзбек халқ топишмоқлари мисолида): Филол. фанл. докт. дисс. автореф. Тошкент, 2007.

Bir yaproqda **o‘ttiz** kelin soch taraydi (**Oy, o‘ttiz kun**).

Bu topishmoqda esa bir oyning tarkibidagi **o‘ttiz** kunning ifodasi berilgan.

Bir tol o‘sdi to ko‘kka qadar,

Bu tolning **o‘n ikki** shoxi bor,

Har shoxida **to‘rttadan** uya bor,

Har uyada **yettidan** tuxum bor,

Har tuxumning yarmi qoradir ko‘rsang,

Yarmi oppoqdir, topgan bo‘lsang.

(Yil, o‘n ikki oy, hafta, kunlar, kecha va kunduz).

Bu yerda tol – yil, shox – oylar, uya – hafta, tuxum – hafta kunlari, oq – kun va qora – tun. Lekin har qaysi predmetning o‘ziga xosligini aniqlashda aynan miqdor bildiruvchi so‘zlar xizmat qilmoqda. Ya’ni:

Bir tol – yil

O‘n ikki shox – oylar

To‘rt uya – hafta

Yettita tuxum – hafta kunlari.

To‘qqiz jondorni **uch** jondor yegan.

(To‘qqiz oy ishlash, uch oy – qish yeyish).

Bu o‘rinda yil fasllari jondor so‘zi bilan berilmoqda, ammo **to‘qqiz** va **uch** so‘zlari bahor, yoz, kuz oylarining **to‘qqiztaligiga**, qishning **uch** oyligiga ishora qilinmoqda.

Xalq topishmoqlarida qo‘llanilgan son-miqdor ifodalovchi lingvistik birliklar shu xalqning boshqa xalqlardan farqlanuvchi etnomadaniyatini yoritishda alohida ahamiyatga ega. Markaziy Osiyo xalqlari og‘zaki ijodi, folklor materiallarida **uch**, **yetti**, **o‘n bir**, **qirq** singari raqamlar muhim o‘rin tutadi. Masalan: **igna** bilan bog‘liq quyidagi topishmoqda uning kichikligi toqqa qarshilantirish bilan berilmoqda, shu bilan birga, **yetti** soni ko‘plik miqdorining ifodasi uchun xizmat qilmoqda.

“Yalt-yalt etdi, **yetti** tog‘dan o‘tdi”.

Miqdor ifodasining quyida **bir**, **o‘n bir**, **qirq** sonlari bilan berilishi ham kuzatilmoqda:

“O‘zi **bir** qarich, soqoli **qirq** qarich”,

“O‘zi **bir** qarich, quyrug‘i **o‘n bir** qarich” (**Igna va ip**)

Keltirilgan topishmoqda **qirq** hamda **o‘n bir** kvantitativlik ifodalovchi birliklari keltirilgan. Bu misollarning birinchisi va ikkinchisida **igna** bilan **ip** qarich o‘lchovida berilgan. Ammo birinchi (igna) va ikkinchi predmet (ip) o‘rtasida uzunlik jihatidan farqlar borligi, ya’ni miqdori turlicha ekanligi ko‘rsatilgan. Soqol ham, quyruq (bu o‘rinda ot quyrug‘i ko‘zda tutilgan) ham ingichka tola - ipga taqqoslangan. Ularning har qaysisida birining o‘rniga ikkinchisini qo‘yish natijasida variantlilik hosil bo‘lgan. Ayni vaqtda, **bir** qisqa miqdoriga, **qirq** uzun miqdori, shuningdek, **bir** va **o‘n bir** birliklari o‘zaro qarama-qarshi qo‘yilmoqda. Ko‘rinadiki, bu o‘rinda o‘zbek xalqi madaniyatining muayyan qirrasini kvantitativlik orqali namoyon bo‘lmoqda.

Topishmoqlarda xalqning diniy e‘tiqodlari bilan aloqador bo‘lgan tushunchalar ham ma’lum ma’noda aks etadi. Masalan:

Bir palak,

Bir palakda

O‘n ikki handalak,

Bu handalakning o‘n birini yeb,

Bittasini yeya olmadik.

(Yil, **o‘n ikki oy**, **bir oy ro‘za**).

Bu o‘rinda berilgan topishmoqda o‘zbek xalqining urf-odatlarini, diniy e‘tiqodiga moslik bor. Islomiy e‘tiqodlarga asosan bir yil davomida bir oy ro‘za bo‘lishi nazarda tutilgan: palak – yil – **bitta**; handalak – oy - **o‘n ikkita**; ro‘za oyi – **bitta**. Ko‘rinadiki, bu topishmoqda xalq etnomadaniyati bilan bog‘liq belgi differensial sema sifatida topishmoqning javobi uchun asos bo‘lgan, aynan son-miqdor bildiruvchi **o‘n bir** va **bir** so‘zlari ramazon oyini aniqlashda vosita bo‘lgan.

Ikki singil,

Og‘ir-yengil (tarozi)

Ushbu topishmoqda ham miqdor ifodalovchi birlik javobni topishdagi dastlabki fikrni keltiradi. Demak, bir-biriga juda o'xshash bo'lgan ikki tushuncha haqida gap ketmoqda. Lekin ularning biri og'ir biri yengil. Bu topishmoqda miqdor ifodalovchi birlik va zid ma'noli so'zlar birgalikda javobning topilishi uchun asos hosil qiladi.

Ba'zan topishmoqlarda bayon qilinayotgan ta'rifdan foydalanib, qanday yo'nalishda mulohaza yuritish lozimligini aniqlay olmaymiz. Quyidagi matnda ham xuddi shu holatga duch kelishimiz mumkin:

Bir yarim quyon,

Uch tulki,

To'qqiz sigir,

Besh echki,

O'n ikki tuya,

O'n yilqi.

Bu topishmoqda ham kishi xayolini miqdor ifodalayotgan birliklar, ya'ni raqamlar egallaydi. Nega quyon bir yarim, yoki tuya o'n ikki bo'lishi kerak, deb o'ylaymiz. Keyin raqamlarni qo'shib biror natijaga erishmoqchi bo'lamiz. Aslini olganda esa, muammo oyni aniqlash bilan yechiladi. Ya'ni quyon bir yarim, tulki uch, sigir to'qqiz, echki besh, tuya o'n ikki, yilqi esa o'n oyda tug'adi. Biz chorva, mol boqish bilan shug'ullangan bo'lsak, topishmoqni javobini topish qiyin bo'lmaydi. Juda bo'lmaganda topishmoq tarkibida nomlari sanab o'tilgan hayvonlarning qancha muddatda ko'payishini bilib olamiz. Demak, yuqorida aytib o'tilganidek, topishmoqlarda har bir so'zga, xususan miqdor ifodalovchi birliklarga ham yuklanayotgan vazifa shu xalqning an'analari, turmush tarzidan kelib chiqib qo'yiladi. Chorvachilikdan umuman xabari bo'lmagan xalqlarning xalq og'zaki ijodi namunalarida yoki adabiyotida yuqoridagi kabi topishmoqlarning uchramasligi tabiiy holdir.

Topishmoqlar shaklan she'riy va nasriy ko'rinishga ega. Biz har ikkala holatda ham ularning tarkibida kvantitativ birliklardan ularning leksik ma'nolari tarkibidagi semalardan o'rinli foydalanilganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan,

“Ayoz” ertagida qiz qo’shni kampiridan chuchvarani zich joylab, ustiga yog’ quyib, patir bilan yopib, Ayozga olib borib berishni iltimos qiladi. Shu bilan birga kampir Ayozga: “Havo qorong’u, yulduz zich, oy butun”, - deyishi kerakligini ham tayinlaydi. Yuborilgan narsalarni yegan Ayoz kampirga: “Havo yorug’, yulduzlar siyrak, oy yarimta ekan”, - ekan deng, - deydi. Ayozning javobidan qiz yo’lda kampirning yuborilgan narsalardan yeganini anglaydi. Bu o’rinda havoning qarong’iligi, yulduzlarning zichligi va oyning butunligi miqdor ma’nosini ifodalash uchun xizmat qilyapti. Shu bilan birga miqdorning me’yordan kamayib qolganini ifodalash uchun ham ayni shu so’zlarning zid ma’nosi bildiruvchi: yorug’, siyrak, yarimta so’zlaridan foydalanilgan.

“Oychinor” dostonida yosh Oychinorga uylanmoqchi bo’lgan Nazarboydan qiz qalin evaziga “ O’nta qo’zi, yigirmata bo’ri, o’ttizta arslon, qirqta qoplon, ellita ayg’ir, oltmish beshta axta, saksonta sarka, to’qsonta taxta...” talab qiladi. Bo’ri, arslon, qoplonni topishga qurbi yetmagan boy doston qahramonlaridan biri – Boburdan yordam so’raydi va Nazarboy Boburga bir beva xotinga uylanmoqchi ekanini aytadi. Shunda Bobur boyning gaplarini mulohaza qilib, unga yolg’on garirayotganini, uylanmoqchi bo’layotgan ayoli beva emas, qiz ekanini aytadi. O’z fikrini isbotlash uchun yigit o’n yoshida qo’ziday, yigirmada bo’riday, o’ttizida arslonday, qirqida qoploday, elligida ayg’irday, oltmish beshda axtaday, saksonida sarkaday, to’qsonida taxtaday bo’lishi kerakligini aytadi va misollar bilan isbotlab beradi. Shundan keyin Nazarboy cholligini ham, qiz bola Oychinorga uylanmoqchi bo’lganini ham tan oladi.

Yuqorida keltirilgan ikki misoldan ko’rinib turibdiki, miqdor ifodalovchi birliklar o’zlarining leksik ma’nolaridan tashqari yana qo’shimcha ma’nolarni yuzaga chiqarish uchun ham xizmat qilmoqda.

Olima Zubayda Husainova ba’zan topishmoqlarda arifmetik raqamlar sonini topish talab qilinishini yozadi⁸². Masalan: “Bir to’da g’oz uchib borar ekan. Bir g’oz ro’baro’ kelib.” Ey yuz g’oz, sog’-salomat bormisiz”, - debdi. Shunda ulardan biri aytibdi: “Biz yuz g’oz emasmiz, yana bir miqdor g’oz bo’lsa, yana bizning

⁸² Хусаинова З. Ўзбек топишмоқлари, - Тошкент. Фан, 1966.

yarmimiz miqdori va yarmimizning yarmi bo'lsa, u vaqtda sen qo'shilsang yuz g'oz bo'lamiz", - debdi. Havodagi g'oz qancha edi? Demak, ushbu topishmoqda ham javobni aniqlashda, ma'noni ochishda noma'lum miqdorni ifodalab kelayotgan bir miqdor, yarim, yarimning yarmi kabi birliklardan foydalaniladi.

Topishmoqlar xalq hayotining hamma sohalarini qamrab olgani bilan ham diqqatga sazovordir. Xalq topishmoqlarida kvantitativlik anglatuvchi so'zlar orqali differensial semaning yuzaga chiqishi ko'p hollarda xalqning etnik xususiyatlari, o'ziga xos dunyoqarashi, diniy e'tiqodlariga tayangan holda namoyon bo'ladi. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, paremiologik birliklar tarkibidagi son-miqdor ifodalovchi leksik vositalar xalq madaniyati bilan uzviy bog'lanadi.

3.2 Kvantitativlikning maqollarda ifodalanishi

Xalq maqollari tarixi o'nlab asrlar bilan o'lchanadi. O'rxun-Enasoy bitiglarida *Yupqa qalin bo'lsa, tor-mor qiladigan bahodir emish, ingichka yo'g'on bo'lsa uzadigan bahodir emish*", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida:

Yesa ichsa oxir bari och to'yar,

Ko'zi och ochligin o'lganda qo'yar kabi maqollarni uchratish mumkin.

M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida dala safarlarida yozib olingan 268 ta maqol matnini keltirish mumkin.

Xalq maqollarining mazmun ko'lamini inson hayotining turli sohalarini qamrab oladi. Inson hayotidagi voqea- hodisalarning cheki yo'q ekan, maqollar mazmuni chegarasini ham o'lchab bo'lmaydi. Maishiy hayotdagi kichik bir e'tiborga arzimaydigandek ko'rinuvchi lavhadan tortib, chuqur falsafiy mushohada ifodasigacha maqollar mazmunida o'z aksini topgan. Maqollarning uzoq o'tmish mahsuli ekanligi ayrim namunalarni bugungi kunda tushunish oson emasligi bilan ham izohlash mumkin. Masalan, *bir pul berib yig'latdim, ming pul berib yupatdim*, maqoliga e'tibor bersak, bu maqolning mohiyatini maqoldagi fikr yo'nalishi va bir – ming miqdor ifodalovchi birliklarining bir-biriga zid qo'yilishidan aniqlash mumkin. Ya'ni umumiy tarzda nojo'ya qilingan harakat yoki tadbir oxir oqibatda insonga ortiqcha tashvish keltirishi haqida gap ketmoqda. Sen shunday harakat qilginki, bu harakating yomon oqibatlarga olib kelmasin, deyilmoqda. Lekin nima uchun bir pul berib yig'lat, ming pul berib yupatadi. Bu savolga javob topish uchun tarixiy urf-odat, an'analirimizga murojaat qilamiz. Qadim zamonlarda aza paytida yig'lab beradigan maxsus odamlar bo'lgan ekan. Ularni "giyrandi" deb atashgan. Aslida bu so'z "giryandi" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "yig'lamoq" fe'li bilan ma'nodoshdir. Uyida biror yaqin kishisi vafot etsa mayit egasi giyrandini chaqirgan. U marosim davomida ma'lum bir haq evaziga yig'lab berishni bo'yniga olgan. Lekin giyrandi o'z vazifasini shunday bajarishi ham mumkin ediki, mayit egasi bu aytuvlarga, bu dod-fig'onga, bu nolalarga chidamasdi. Shunda u giyrandidan yig'lamaslikni iltimos qilgan. Giyrandi esa atay avjga chiqqan, natijada uni to'xtatish uchun ko'proq haq berilgan. Maqolda

arzimagan pul evaziga yig'lovchi chaqirish, ammo uning jim bo'lishi uchun katta miqdorda pul berish voqeasi aks etgan. Maqolda aynan bir va ming miqdor ifodalovchi birliklarining bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishi ham ular orasidagi farqning kattaligi bilan bog'liqdir.

Podshoni ko'rish – bir ziyorat

Shayxni ko'rish – o'n ziyorat

Keltirilgan maqol tarkibidagi bir va o'n birliklari shunchaki miqdor ma'nosini ifodalashdan tashqari, matn tarkibida podsho va shayx o'rtasidagi farqni ochib berish uchun xizmat qilmoqda. Yurt rahbari qanchalik ulug', martabali inson, u kishi bilan ko'rishish hamma uchun birdek sharaf, shunday sharaftan ham ulug'rog'i shayxning suhbatida, ziyoratida bor. Demak, yuqorida aytib o'tganimizdek, xalq maqollari shu har bir xalqning qadimiy urf-odatlarini, e'tiqodini bilan chambarchas bog'liq holda yuzaga kelgan.

Bizga ma'lumki, har bir leksemaning tarkibida umumiy va xususiy semalar mavjud. Miqdor ifodalovchi leksemalarda ham xuddi shunday. Miqdor ma'nosi ularning umumiy semasi bo'lsa, ifodalanayotgan miqdorning me'yordan ortiq yoki kamligi, umumiyliigi yoki umuman mavjud emasligi bunday birliklarning xususiy semalaridir. Biz yuqorida ko'rib o'tganimizdek, leksema ikki tomonga ega til birligi hisoblanadi. Aniqrog'i u shakl va mazmun tomonlaridan iborat ramzdir. Sistem tilshunoslikda leksemaning shakl tomoni nomema deyiladi. Nomema faqat leksemaning shakliga (moddiy qobig'i, tashqi tomoniga) nisbatan ishlatiladi. Leksemaning mazmun tomoni (ma'nosi, ichki tomoni, signifikati) esa semema nomi bilan yuritiladi. Leksemaning mohiyati uning ichki tomoni – semema orqali va shunga ko'ra, leksemaning boshqa til birliklari bilan munosabatga, aloqaga kirishuvi orqali belgilanadi. Ammo nutqda, ayniqsa, nazmiy nutqda nomema katta ahamiyatga ega bo'ladi. Miqdor ma'nosini ifodalayotgan birliklar maqollar tarkibida ham qo'llanganda ham shu mazmun tomoni bilan birgalikda shakl tomoni ham muhim vazifa bajaradi.

Sandig'i to'la sepi bo'lguncha,

Yuragi to'la epi bo'lsin.

Keltirilgan maqolda miqdorning me'yordan ortiqqligini ifodalovchi to'la lekemasi xususiy semalari bilan boshqa miqdorning me'yordan ortiqqligini ifodalovchi birliklardan farq qiladi. Aytaylik, shu o'rinda miqdorning me'yordan ortiqqligini ifodalovchi ko'p so'zidan foydalanilsa, mazmuniy nomuvofiqlik kelib chiqishi mumkin edi. Bu o'rinda miqdor ma'nosini ifodalayotgan birlik *to'la* sandiq bilan ham sep bilan ham semantik jihatdan bog'lanyapti. Chunki bizga ma'lumki, sandiq hajmi katta predmet, sep ham odatdagi kiyim-boshdan ko'ra ancha ko'p bo'lishi aniq. Sandiqqa solinadigan sepning me'yori ko'p bo'lishi hammaga ma'lum. Endi shundan ham ortiqroq sep-sidirg'adan ko'ra, birinchi fikrga monand holda me'yordan ancha ortiq bo'lgan uquv, ep talab qilinyapti.

Maqollarning o'ziga xos xususiyati bo'lgan ohangdorlikni yuzaga keltirish maqsadida quyidagi maqolda soz leksemasi o'zining asl ma'nosi bo'lgan yaxshi, ijobiy ma'nolarida emas, balki miqdor ma'nosini yuzaga chiqarish uchun qo'llangan:

Rosa ekan soz olur

Ola ekan oz olur

Soz so'zi asli miqdor ma'nosini ifodalash xizmat qilmay, belgini ifodalab keladi. Keltirilgan maqolda ko'p – miqdorning me'yordan ortiqqligini ifodalab kelyapti. Shu bilan birga keyingi qatordagi miqdorning me'yordan kamligini ifodalayotgan oz leksemasiga qarshi qo'yilyapti.

Sabrli kishining ishi soz maqolida soz so'zi biz yuqorida aytib o'tgan, belgini ifodalab kelgan, ya'ni sabr qilgan kishining ishi yaxshi, a'lo bo'ladi kabi ijobiy ma'noda qo'llangan.

Maqollar mazmuni ularning o'zi va tabiati kabi sirli olamga ega. Unda qo'llanilgan har bir miqdor ifodalovchi leksema o'zining xususiy semalari bilan ma'lum bir vazifa bajarish uchun xizmat qiladi.

III BOB BO'YICHA QISQA XULOSA:

1. Har bir leksemaning tarkibida umumiy va xususiy semalar mavjud. Miqdor ifodalovchi leksemalarda ham xuddi shunday. Miqdor ma'nosi ularning umumiy semasi bo'lsa, ifodalanayotgan miqdorning me'yordan ortiq yoki kamligi, umumiyliigi yoki umuman mavjud emasligi bunday birliklarning xususiy semalaridir.

2. Muayyan millatning madaniyati, urf-odatlar, diniy e'tiqodlari shu xalqning tilida u yoki bu shaklda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, bu jarayon paremiologik birliklar orqali yaqqol ko'zga tashlanadi. Xalq maqollari, iboralar, topishmoqlar, aforizmlar shu xalqning ifodalovchisi sifatida muhim ahamiyatga ega. Xususan, topishmoqlar matnida ham xalq urf-odatlar, madaniyatining ma'lum qirralari ifodalanishi mumkin.

3. Xalq topishmoqlarida qo'llanilgan son-miqdor ifodalovchi lingvistik birliklar shu xalqning boshqa xalqlardan farqlanuvchi etnomadaniyatini yoritishda alohida ahamiyatga ega. Markaziy Osiyo xalqlari og'zaki ijodi, folklor materiallarida *uch, yetti, o'n bir, qirq* singari raqamlar muhim o'rin tutadi.

4. Topishmoqlar xalq hayotining hamma sohalarini qamrab olgani bilan ham diqqatga sazovordir. Xalq topishmoqlarida kvantitativlik anglatuvchi so'zlar orqali differensial semaning yuzaga chiqishi ko'p hollarda xalqning etnik xususiyatlari, o'ziga xos dunyoqarashi, diniy e'tiqodlariga tayangan holda namoyon bo'ladi.

5. Maqollar mazmuni ularning o'zi va tabiati kabi sirli olamga ega. Unda qo'llanilgan har bir leksema o'zining semalari bilan ma'lum bir vazifa bajarish uchun xizmat qiladi. Xususan, maqollar tarkibida qo'llangan kvantitativ birliklar ham o'zining semantik ma'nosidan kelib chiqib, muhim vazifa bajarib keladi.

6. Leksemaning mohiyati uning ichki tomoni – semema orqali va shunga ko'ra, leksemaning boshqa til birliklari bilan munosabatga, aloqaga kirishuvi orqali belgilanadi. Ammo nutqda, ayniqsa, nazmiy nutqda nomema katta ahamiyatga ega bo'ladi. Miqdor ma'nosini ifodalayotgan birliklar maqollar tarkibida ham qo'llanganda ham shu mazmun tomoni bilan birgalikda shakl tomoni ham muhim vazifa bajaradi.

7. Aksar narsa va hodisalarning nomlanishida xalqning olamni o'ziga xos tarzda tasavvur qilishi, ko'rishi, xalqning obraz yaratishdagi o'ziga xosligi namoyon bo'ladi. Jumladan, muayyan millatning madaniyati, urf-odatlari, diniy e'tiqodlari shu xalqning tilida u yoki bu shaklda namoyon bo'ladi. Paremiologik birliklar tarkibidagi son-miqdor ifodalovchi leksik vositalar xalq madaniyati bilan uzviy bog'lanadi. Xususan, topishmoq va maqollar matnida ham xalq urf-odatlari, madaniyatining ma'lum qirralari ifodalanishi mumkin.

UMUMIY XULOSALAR

1. Faylasuflar obyektiv borliqni o'rganayotib, miqdor kategoriyasining geterogenligi (har-xilligi) haqida aytadilar. Bu xilma-xillik miqdor, son, o'lchov, katta-kichiklik kabi turli belgilarni qamrab oladi.

2. Shu bilan birga miqdor kategoriyasining boshqa kategoriyalar bilan mustahkam aloqasini kuzatish mumkin. Har bir kategoriya bilan aloqa tilshunoslikda substansionallik, kvalitatiflik, temporallik, aksionallik nomlari bilan ataladigan kategoriyalari o'ziga xos xarakterga ega.

3. Miqdor kategoriyasining tilda aks etishi turlicha bo'lib, vositalari ham rang-barangdir. Xususan o'zbek tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanayotgan miqdor ifodalovchi birliklar tilning barcha sathlari uchun xos bo'lib, bu haqda tilshunoslar tomonidan turlicha qarashlar bildirilgan.

4. Bizningcha ham, miqdor ifodalovchi birliklarning hammasi xususiy belgilariga ko'ra farqlanadi, umumiy belgisi, ya'ni miqdor ma'nosini yuzaga chiqarishi bilan yaxlit bir tizim hosil qiladi. Shuningdek, miqdor ifodalovchi birliklar tilning turli sathlariga mansubligi uchun kategoriya atamasini qo'llash torroq tushunchani ifodalaydi. Kvantitativ belgi til sathlari o'rtasida eng keng tarqalgan tasniflovchi belgilardan hisoblanadi.

5. Kvantitativ belgini muayyan sath birliklarini ajratishda yoxud o'zaro qiyoslanuvchi sathlarning birliklari orasidagi o'xshashlik hamda farqlarni belgilashda muhim kreteriya sifatida qo'llash mumkin.

6. Kvantitativ belgi til vositalaridan keng foydalanilgan holda, ayrim tovushdan tortib butun bir matnlar orqali ham ifoda qilinishi kuzatiladi. Ba'zan miqdoriy belgi til vositalari tahlilida ifoda plani orqali umuman sezilmasdan, faqatgina mazmun planini chuqur tahlil etilganda namoyon bo'lishi ushbu kategoriyaning murakkab va nozik qirralaridan biri sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
- Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т.: Ўзбекистон, 1998.
- Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - T.: O'zbekiston, 2011.
- Mirtojiev M. O'zbek tili fonetikasi.Toshkent.Fan-2013
- www.ziyouz.com.
- А.Қодирий.Ўтган кунлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012.
- Акуленко В.В., Акуленко Л.Г., Клименко Н.Л. Лексико-фразеологические средства выражение неопределенно большого количества в современном русском языке.// Вопросы языкознания. 1998 №3
- Акуленко В.В., Акуленко Л.Г., Клименко Н.Л. Лексико-фразеологические средства выражение неопределенно большого количества в современном английском языке. // Вопросы языкознания. 1998 №4
- Акуленко В.В., Акуленко Л.Г., Клименко Н.Л. Лексико-фразеологические средства выражение неопределенно большого количества в современном немецком языке. // Вопросы языкознания. 1999 №3
- Акуленко В.В., Акуленко Л.Г., Клименко Н.Л. Лексико-фразеологические средства выражение неопределенно большого количества в современном испанском языке. // Вопросы языкознания. 1999 №4
- Акуленко В.В., Акуленко Л.Г., Клименко Н.Л. Лексико-фразеологические средства выражение неопределенно малого количества в современном русском языке. // Вопросы языкознания. 1999 №6
- Воҳидов Э. Сайланма 1-жилд: Ишқ савдоси. Тошкент: Шарқ, 2000.
- Воҳидов Э. Сайланма 2-жилд: Шеър дунёси. Тошкент: Шарқ, 2001.
- Воҳидов Э. Сайланма 3-жилд: Умрим дарёси. Тошкент: Шарқ, 2001.
- Ғуломов А. Ўзбек тили морфем луғати. - Тошкент: Ўқитувчи, 1977.
- Ғуломов А. Ўзбек тилида кўплик категорияси. Тошкент, Ўздавнашр.1944.
- Зулфиев Я. Жамлик категориясининг ўзига хос хусусиятлари// Ўзбек тили ва адабиёти,1975, 4-сон

- Зикриллаев Ғ.Н. Ўзбек тили грамматик қурилишининг бош хусусияти// Истиқлол ва она тили таълими(тўплам).Тошкент, 2000.
- Игошина.Т.В. Морфотемный анализ категории количественности в разносистемных языках. Дисс.канд.филол.наук.-У.,2004.
- Қобулова У.С. Метафорик матнда интеграл ва дифференциал семалар муносабати (ўзбек халқ топишмоқлари мисолида): Филол. фанл. докт. дисс. автореф. Тошкент, 2007.
- Кошечая И.Г. Проблемы языкознания и теории английского языка.М: Просвещение, 1976
- Красова.С.И. Фразеологические единицы со значением количества в русском языке. Дисс.канд.филол.наук.-Ростов, 1981.
- Лашкевич А.И. Генетические конструкции со значением метафорического количества в современном русском языке. Дисс.канд.филол.наук. – Минск,1976.
- Мамажонов А. Абдупаттоев М. Матн назарияси. Фарғона. 2016.
- Мамажонова М. Квантитативлик (миқдор категорияси) ва унинг феълларда ифодаланиши//Тил ва адабиёт таълими. 2009,5-сон
- Мамажонова М. Квантитативликнинг тил бирликлари таҳлил қилишдаги аҳамияти//Молодой учёный. 2016, 3-сон
- Манюлов.Н.В. Категория неопределенности в структуре научного познание. Дисс.канд.филол.наук. – Л., 1985
- Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк.Т.1 – 3. – Тошкент: Фан, 1960 – 1963.
- Маҳмудов А. Фонетическая система узбекского литературного языка.
- Меновикив.Г.А. Вопросы языкознания.-1970.№1-ст.82-88
- Мирзо И. Сени бугун кўрмасам бўлмас. – Тошкент, 2010.
- Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик-хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши. Тошкент, 2005.
- Нурмонов А. Искандарова Ш. Умумий тилшунослик. Андижон – 2007.
- Нурмонов А. Танланган асарлар. I жилд. Тошкент: Академнашр, 2012.

- Нурмонов А. Танланган асарлар. II жилд. Тошкент: Академнашр, 2012.
- Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилд. Тошкент: Академнашр, 2012
- Панфилов В.З. Философские проблемы языкознания. М:Наука, 1977.
- Сапарниязова М. Ўзбек халқ топишмоқларининг синтактик-семантик хусусиятлари: Филол. фанл. докт. ...дисс. автореф. Тошкент, 2005.
- Сафаров Ф. Ўзбек тилида сон-миқдор микромайдони ва унинг лисоний-нутқий хусусиятлари. Филол. фанл. ном. дисс. Самарқанд – 2004.
- Ўзбек тили грамматикаси. Тошкент, 1975.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т. I. – М.: Рус тили, 1981.
- Ўзбек топишмоқлари. Тошкент: Ўқитувчи, 1991.
- Фитрат А. Ўзбек тили қоидалари тўғрисида бир тажриба. Сарф. Китоб 1. – Самарқанд – Тошкент: Ўздавнашр. 1930.
- Фитрат А. Ўзбек тили қоидалари тўғрисида бир тажриба.Сарф. Китоб 1. – Самарқанд – Тошкент: Ўздавнашр. 1930.
- Ҳожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. Тошкент: Фан, 2010.
- Холодович А.А. Категория множества в японском языке в свете общей категория множества в языке. Ученые записки ЛГУ, серия филологических наук № 10, 1946.
- Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. Тошкент: Фан, 2013.
- Хусаинова З. Ўзбек топишмоқлари, - Тошкент. Фан, 1966.
- Хусаинова З. Ўзбек топишмоқлари. Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.